

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSION TA‘LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

Qo‘lyozma huquqida


UDK:811.512.133:685.341.85

**RAXMATULLAYEV NURIDDIN KOMILOVICH
“MUSTAQILLIK DAVRI BOLALAR ADABIYOTINING TIL
XUSUSIYATLARI”**

**70230101 – Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi 2-kurs
magistrant akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTASIYASI

‘Ilmiy rahbar:



**Odilov Yorqinjon Rahmonaliyevich
f.f.d, prof.**

TERMIZ – 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022 -yil 6-yanvar dagi № -34 T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetning rasmiy veb-sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (70 raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 48-uy.)

Ilmiy rahbar :  f.f.d., prof. Yo. Odilov

Kafedra mudiri:  PhD. N. A. Monturdiyev

Magistratura bo'limi boshlig'i:  PhD. A. Narbayev



70230101 – Lingvistika (O‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti
Raxmatullayev Nuriddin Komilovichning “Mustaqillik davri bolalar
adabiyotining til xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga

ANNOTATSIYA

Tayanch so‘zlar: badiiy matn, til birliklari, ekspressivlik, estetik vazifa, stilistik xususiyatlar.

Tadqiqot obekti sifatida bolalar adabiyoti asarlarining til xususiyatlari va tasviriy vositalar tanlandi.

Ishning maqsadi - bolalar yozuvchilarining eng yaxshi asarlarining til xususiyatlarini o‘rganish, ona diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalash.

Tadqiqot metodlari – magistrlik dissertatsiyasida tavsiflash, qiyoslash, umumlashtirish, chog‘ishtirish usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi - Mazkur tadqiqotda mustaqillik davri bolalar adabiyoti tilining leksik-semantik xususiyat ochib berilgan, o‘zbek bolalar adabiyoti asarlari tilining funksional-uslubiy imkoniyatlari yoritilgan. Bunda bolalar adiblarining tilning leksik-semantik vositalaridan foydalanish mahorati o‘rganilgan.

Amaliy ahamiyati - Mazkur tadqiqot natijalaridan bakalavr bosqichi talabalari uchun bolalar adabiyoti asarlarining til xususiyatlari, jumladan, tasviriy vositalarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Qo‘llanilish sohasi – Oliy ta‘lim muassasalari. Morfologiya, leksikologiya, dialektologiya turlari.

ANATATION

“Linguistic features of children's literature of the period of independence” master’s dissertation on the topic

Base words: Artistic text, language units, expressiveness, aesthetic task, stylistic features.

Objects of research: Linguistic features and pictorial means of works of children's literature were selected.

The purpose of the study: To study the linguistic features of the best works of children's writers, to educate in the spirit of love for our native land, work, devotion to our time.

Research methods: In his master's thesis, methods of description, comparison, generalization, grinding were used.

The obtained results and their novelty - In this study, children's literature of the period of independence revealed the lexical - semantic feature of the language, and the functional - methodological capabilities of the language of the works of Uzbek children's literature were covered. In this, the skill of children's etibs to use the lexical-semantic tools of the language is studied.

Practical significance: From the results of this study, the language characteristics of children's literature works for students of the undergraduate stage, including pictorial means, are established.

The field of application: Institutions of Higher Education. Types of morphology, lexicology, dialectology.

MUNDARIJA

KIRISH	6
I BOB. BADIY ASAR TILI LINGVISTIK TADQIQ OBYEKTI SIFATIDA	11
1.1. Badiiy asarlar tilining o'rganilishi tarixi	11
1.2. Badiiy asarning til xususiyatlarini o'rganish tamoyillari	16
1.3. Bolalar adabiyotining til xususiyatlari	21
II BOB. MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI ASARLARI TILINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI	31
2.1. Bolalar adabiyotida ma'nodosh so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	31
2.2. Bolalar adabiyotida zid ma'noli so'zlarning uslubiy imkoniyatlari.....	33
2.3. Bolalar adabiyotida ko'p ma'noli so'zlar.....	37
2.4. Bolalar adabiyotida frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari	44
III BOB. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI ASARLARI TILINING FUNKSIONAL-USLUBIY IMKONIYATLARI	49
3.1. Bolalar adabiyoti asarlari tilida o'xshatishlarning poetik imkoniyatlari	49
3.2. Epitetlarning uslubiy imkoniyatlari.....	53
3.3. O'zbek bolalar adabiyoti asarlari tilida ko'chimlar.....	63
XULOSA	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	82
ILOVALAR	87

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatiga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoiyatlarini safarbar etamiz”¹ – deb ta’kidlagan edi. Bolalar adabiyoti yoshlarni dunyoqarashida ularni vatanga va oilaga muhabbat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda voqealar tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda yechilishi talab qilinadi. Bolalar yozuvchilarining so‘z qo‘llashdagi mahorati asarning badiiyligini ta’minlashda asosiy omil sanaladi va asar tilining ravon va aniq bo‘lishiga xizmat qiladi.

Yozuvchi asarlari misolida bunday jihatlarni tadqiq etish qimmatli ilmiy-nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda, bolalarning kommunikativ qobiliyatini, lingvokreativ salohiyatini, bolalar nutqining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini uslubiy jihatdan asoslash, lisoniy va nutqiy vaziyat darajasini belgilash tilshunoslikda alohida izlanish olib borish zaruratini ko‘rsatadi. Ishda mustaqillik davri bolalar adabiyoti asarlarining til xususiyatlari va tadqiqi tavsiflangan. Shuningdek, yozuvchilarining so‘z qo‘llash mahorati asarning badiiyligini ta’minlashda asosiy omil ekanligi, asar tilining ravon va aniq bo‘lishi bolalarning kommunikativ qobiliyatini, lingvokreativ salohiyatini oshirishi, lisoniy va nutqiy vaziyatda o‘z-o‘zini namoyon qilish masalalari tadqiqqa tortilgan.

Badiiy asar tiliga munosabat, uni badiiy-uslubiy jihatdan o‘rganish uzoq tarixga ega. Biroq unga jiddiy e’tibor XX asrning 30-yillarida ancha kuchaydi. Jahon va rus adabiyotshunosligida, keyinroq o‘zbek adabiyotshunosligida bajarilgan ko‘pgina tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. Xalqimiz azal-azaldan farzandlarining har tomonlama sog‘lom, yetuk inson bo‘lib yetishishini ko‘zlab ish

¹ Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik //O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 265 bet

yuritgan. Bu borada turli tarbiya vositalaridan, shu jumladan, soʻz sanʼatidan ham samarali foydalangan.

Farzandlarimizning “bizdan koʻra bilimli, aqlli, dono va, albatta, baxtli boʻlishlari kerak” ligi ham shunchaki shior boʻlmay, davlatimiz Birinchi Prezidentining yosh avlodga chinakam gʻamxoʻrligi nishonasi boʻlgan edi.

Badiiy asar tilini koʻp tadqiq qilgan akademik V. Vinogradov: “Badiiy adabiyot tilini tadqiq qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslikka yaqin, biroq ularning har ikkisidan ajralib turuvchi maxsus filologik fanning tekshirish obyekti boʻlishi lozim”, - deb taʼkidlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda antonimiyani oʻrganishning lingvistik va psixolingvistik jihatlarini konseptsiya sifatida qarama-qarshi narsa inson ongining tabiiy moyilligining oʻziga xos namoyonlaridan biri boʻlib, kundalik hayotda, ilmiy bilimlarda turli gʻoyalar asosida yotadi. Shuni taʼkidlash kerakki, qarama-qarshilikni his qilish va idrok etish maʼlum darajada odamlarning yoshiga, kasbiga, geografik, iqlimiy, ijtimoiy va boshqa yashash sharoitlariga bogʻliq boʻlishi mumkin va baʼzan juda subyektiv boʻladi. Shunday ekan, bugungi davr adabiyotiga oʻz hissasini qoʻshayotgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini oʻrganishda antonimik, sinonimik munosabatlarga ham diqqat qaratish muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun yozuvchi Xudoyberdi Toʻxtaboyev asarlarining oʻziga xos uslubiy jihatlarini oʻrganishni maqsad qildik.

Maʼlumki, faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli taʼsir koʻrsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik va psixologik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi.

Adabiy asarning tili uning gʻoyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar yosh kitobxonning nutqiga ham katta taʼsir koʻrsatadi, soʻz boyligini oshiradi.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga turli munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo'lishiga xizmat qiladi.

Tilning o'ziga xos tasviriy vositasi bo'lgan o'xshatishlar badiiy asarda juda muhim o'rin tutadi. O'xshatishlar badiiy asarning ifodaliligini, ta'sirchanligini oshirish orqali kitobxonga estetik ta'sir ko'rsatuvchi vositadir.

Yozuvchi asarda o'xshatishlardan maqsadga muvofiq foydalansagina o'xshatishlar asarning bezagi bo'la oladi, agar aksi bo'lsa, asar tilini ham, mazmunini ham g'ariblashtiradi. O'xshatish shunday tasviriy vositaki, u badiiy asarda har bir matnda kuzatilishi mumkin.

Tadqiqotning obyekti va predmeti: O'zbek bolalar adabiyoti asarlari tilining leksik-semantik xususiyatlarini ko'zda tutgan holda ma'nodosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, frazeologik birliklarni leksik-semantik xususiyatlari hamda o'zbek bolalar adabiyoti tilning funksional-uslubiy imkoniyatlarini o'rganish ushbu mavzuning tadqiqot obyekti va predmeti hisoblanadi.

Magistrlik tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari: Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi asarlari yosh avlodni hayotga turli munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqiradi. Yozuvchilarning asarlarida bolalar ma'naviyatini, tafakkurini o'stirish hamda muloqot odobini shakllantirishda yordami nihoyatda ahamiyatlidir.

Tadqiqot ilmiy yangiligi: Mazkur tadqiqotda mustaqillik davri bolalar adabiyoti asarlari tilining leksik-semantik xususiyatlari ochib berilgan; o'zbek bolalar adabiyoti asarlari tilining funksional-uslubiy imkoniyatlari yoritilgan. Bunda tilning leksik-semantik hamda funksional-uslubiy xususiyatlarini shakllantirish masalasi ko'tarildi. Bular:

- Bolalar adabiyotida ma'nodosh so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari;
- Bolalar adabiyotida zid ma'noli so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari;
- Bolalar adabiyotida ko'p ma'noli so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari;

- Bolalar adabiyotida frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari;
- Bolalar adabiyoti tilida o‘xshatishlarning poyetik imkoniyatlari;
- Epitetlarning uslubiy imkoniyatlari;
- Mustaqillik davri o‘zbek bolalar adabiyoti tilida ko‘chimlar bilan bog‘liq jihatlarini nazardan qochirmaslik.

Tadqiqot asosiy masalalari va farazlari: Yozuvchilarning asarlari bolalar ma’naviyatini, tafakkurini o‘stirishda yordami qanchalik kuchli, ahamiyatli ekanligini tushunishda hamda muloqot odobini shakllantirish; mustaqillik davri bolalar adabiyotining uslubiy-tasviriy vositalar bolalar nutqini individuallashtirish, tipiklashtirish, bola shaxsini gavdalantirish, psixologiyasini ochib berish, vaziyatning aniq tasvirini bola tilidan obrazli ifodalashga xizmat qilishini tahlil qilish.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi: Mazkur tadqiqotda ilk bor, badiiy asar tili tadqiqi bilan bir umr shug‘ullangan V.Vinogradov o‘zining tajribalarini “Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari”da yoritilgan asarlaridan foydalandi;

Umuman aytganda, hududiy nuqtayi nazardan Raxmatilla Barakayev, B.Yo‘ldoshev, T.Qurbonovlar badiiy asar tili va uslubi masalalari yuzasidan tadqiqotlar ko‘tarildi;

Mustaqillik yillarida esa, o‘zbek filologiyasida badiiy asar tilini o‘rganish sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida: B.O‘rinboyev, I.G‘aniyev, I.Mirzayev, Y.Solijonov, B.Yo‘ldoshev, S.Karimov, B.Umurqulov, Q.Samadov, T.Qurbonov, I.Toshaliyevlarning ishlari tahlili Keyingi yillarda M.Yo‘ldoshev, Sh.Abdurahmonov, G.Imomova, Yo.Sayidov, G.Keldiyorova, G.Qobuljonova, R.Normurodov, F.Bobojonovlarning badiiy asar tiliga oid nomzodlik ishlari haqida ma’lumotlar o‘rganildi;

O‘zimizda badiiy asarni o‘rganish uchun katta hissa qo‘shgan Samarqand chet tillar institutida Ibodulla Mirzayev tadqiqoti o‘rganildi;

Bolalar adabiyoti hamda bolalar adabiyoti til xususiyatlari haqida Ma’ruf Yo‘ldoshev, Shoira Toshxo‘jayeva, Nizomiddin Mahmudov, Muqaddas Exsonova,

Munavvara Qurbonova kabi olim va olimalar tadqiqot ishlarini tahsinga sazovor ekanligini ta'kidlash joizdir.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiya ishida tizimli tahlil usullari, pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, to'plangan ma'lumotlarni taqqoslash va solishtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalaridan bakalavr bosqichi talabalari uchun bolalar adabiyoti asarlarining til xususiyatlari, jumladan, tasviriy vositalarni o'qitishda foydalanish mumkin. Bolalar adabiyotining uslubiy-tasviriy vositalari bolalar nutqini ochib berish mumkin.

Ishning tuzilishi va tarkibi: Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, 10 fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. BADIY ASAR QAHRAMONLAR TILI LINGVISTIK TADQIQ OBYEKTI SIFATIDA

1.1. Badiiy asar tilining o'rganilishi tarixi

XX asr boshlarida badiiy asar tilini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari. Praga tilshunoslik maktabi, opoyaz tashkilotining badiiy asar tilini o'rganishga qo'shgan hissi. Y.Tinyanovning "She'riy nutq masalalari" (1926), V.Shklovskiyning "Proza nazariyasi haqida" (1929), A.Fitratning "Adabiyot qoidolari" (1926), V.V.Vinogradovning "Badiiy proza haqida" (1930) nomli asarlarining badiiy til masalalarini tadqiq etishdagi o'rni².

20-yillarda badiiy asar tili muammosining o'rganilishida Abdurauf Fitratning "Tilimiz" (1919), "Yopishmagan gajaklar" (1924), "Adabiyot qoidolari" (1926) asarlarining ahamiyati. Cho'lponning "Adabiyot nadur?", "Tilimizning ishlanishi" (1923) nomli maqolalarida badiiy asar tiliga doir bayon qilingan fikrlar. 1933-1934 yillarda "Литературная газета" sahifasida badiiy asar tili haqida uyushtirilgan munozara, bunda I.Sulton, R.Majidiy, Oybek, M.Hakim singari o'zbek olimlarining ishtiroki. Oybekning "O'zbek poeziyasida til" (1934) nomli maqolasi haqida. Badiiy asar tili muammolarining o'rganilishida Oybekning "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" (1936) nomli risolasining tutgan o'rni.

40-50-yillarda badiiy asar tili masalalarining o'rganilish ahvoli. V.Zohidov, A.G'ulomovlarning "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" jurnalida e'lon qilingan "Tilimiz madaniyati uchun" (1941) nomli maqolasi haqida. X.Nazarovanning "Hamza asarlarining tili" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi o'zbek filologiyasida badiiy asar tiliga oid dastlabki alohida ish sifatida. Sh.Shoabdurahmonovning "Ravshan" dostonining til xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (1949) o'zbek folklori tilini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ish sifatida. O'zbek lingvofolkloristikasining keyingi qirq yilda erishgan yutuqlari va istiqboli.

² Badiiy asar tili va uslubi masalalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. B.Yo'ldoshev, T.Qurbonov. Samarqand-2006, 88-bet.

50-70-yillarda badiiy asar tilini o‘rganish muammolari. Ya.D.Pinxasov (1953), A.Shomaqsudov (1956), M.Husainov (1959) larning badiiy asar tiliga bag‘ishlangan nomzodlik ishlari, ularning ayrim nuqsonlari. O.Sharafiddinovning “Poeziyada til va stil masalalari” (1959) nomli ishi haqida. A.Ahmedov (1962), I.Qo‘chqortoyev (1965), Q.Samadov (1967), R.Mirazizova (1968), O‘.Nosirov (1968), O.Abdullayeva (1969)larning badiiy asar tiliga bag‘ishlangan nomzodlik ishlari to‘g‘risida. I.Sultonov, F.Nasriddinov, N.Shukurov, P.Qodirov kabi adabiyotshunos olimlarning badiiy asar tilini tadqiq etishga qo‘shgan hissalar. N.Shukurovning “Individual uslub va badiiy til” (1972) nomli maqolasi tahlili.

70-80-yillarda badiiy asar tili muammolarining o‘zbek filologiyasida o‘rganilishi. S.Mamajonov, O‘.Nosirov, M.Sultonova singari adabiyotshunos olimlarning badiiy asar tili va individual uslubga doir tadqiqotlari to‘g‘risida. M.To‘ychiyev (1973), B.Yo‘ldoshev (1978), B.Yoriyev (1979), E.Abdiyev (1982), S.Karimov (1983), kabi olimlarning badiiy asar tili va uslubiga bag‘ishlangan nomzodlik ishlari haqida. 1985 yilda “Sharq yulduzi” jurnali sahifasida “Badiiy til muammolari”ga bag‘ishlangan bahs-munozara va uning uslubshunoslik ilmi uchun ahamiyati. Said Ahmad, Turob To‘la, T.Rasulov, H.Rustamov kabi ijodkorlarning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida badiiy asar tiliga doir bahs-munozaralari haqida. O.Sharafiddinovning “Adabiyot tildan boshlanadi” nomli maqolasi va unga javoban yozuvchi Ibrohim Rahimning “Haqiqat saboqlari” nomli maqolasi munosabati bilan “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida o‘tkazilgan bahs-munozara (1986-1987) haqida.

Mustaqillik yillarida o‘zbek filologiyasida badiiy asar tilini o‘rganish sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida: B.O‘rinboyev, I.G‘aniyev, I.Mirzayev, Y.Solijonov, B.Yo‘ldoshev, S.Karimov, B.Umurqulov, Q.Samadov, T.Qurbonov, I.Toshaliyevlarning ishlari tahlili o‘rganildi. Keyingi yillarda M.Yo‘ldoshev, Sh.Abdurahmonov, G.Imomova, Yo.Sayidov, G.Keldiyorova, G.Qobuljonova, R.Normurodov, F.Bobojonovlarning badiiy asar tiliga oid nomzodlik ishlari haqida. Badiiy asar tili tadqiq etish masalalari ko‘tarildi.

Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o'ziga xos hodisa hisoblanadi. Tilshunoslik, umuman, filologiya tarixida uni o'rganishga turlicha yondashib kelingan. Badiiy asar tili tadqiqi bilan bir umr shug'ullangan V.Vinogradov o'zining "Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari" nomli ma'ruzasida badiiy adabiyot tili to'g'risida gap ketganda, "til" so'zi ikki xil ma'noda qo'llanishini ta'kidlaydi³.

1) U yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi "nutq" yoki "matn" (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil materiali) ma'nosida;

2) "San'at tili", badiiy ifoda vositalari sistemasi ma'nosida.

Adabiyotning so'z san'ati ekanligi, uning birlamchi unsuri til ekanligi haqidagi haqiqatni hech kim hech qachon inkor etgan emas. Kishilik tarixida adabiyot atalmish dunyoni obrazli idrok etish san'ati yaralibdiki, bu san'atning asosiy ifoda vositasi bo'lgan so'z, tilni tadqiq etishdek mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi.

Atoqli o'zbek adabiyotshunosi O.Sharafiddinov o'zining "Adabiyot tildan boshlanadi" nomli maqolasida shunday yozadi: "Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deyilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobga chiqariladi"⁴.

Bu o'rinda yirik adib va adabiyotshunos P.Qodirovning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: *"haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdan quriladi Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi. Adabiy asarning musiqa, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglar, chiziqlar, bo'yoqlar vositasi bilan emas, so'zlar vositasi bilan yaratilishida ko'rinadi. Demak, badiiy til har qanday adabiy asarning **spesifikasini** belgilaydigan eng*

³ В.В.Виноградов. О языке художественной литературы.-М.: Гостехиздат, 1957.-С.4 2Yo'ldoshev B, Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. B.88

⁴ Yo'ldoshev B. Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. (o'quv -uslubiy qo'llanma) . Samarqand-2006. 89 bet.

*asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchi qatorida turadi"*⁵.

O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda, asosan, ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin.

1. **Lingvistik yo'nalish.** Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati, ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy-badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi.

Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va mustahkam lingvistik an'ana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan.

2. **Lingvopoetik yo'nalish.** Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi:

1) Kommunikativ vazifa - tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi.

2) Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi.

3) Konstruktiv vazifa – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi.

4) Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi" atamasi bilan bir qatorda, "tilning poetik vazifasi", "tilning badiiy vazifasi", "tilning estetik vazifasi" kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, "tilning estetik vazifasi" atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi

⁵ Yo'ldoshev B. Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. (o'quv -uslubiy qo'llanma) . Samarqand. 2006. 88-bet

ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o‘z ichiga olgan holda ularni umumlashtiradi.

Boshqacha aytganda, mazkur tushunchalar ichida estetik vazifaning qamrovi ancha keng. Albatta, har qanday badiiy asarda tilning boshqa vazifalari ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda alohida urg‘u beriladi: “Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o‘laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘luvchi va matnning o‘ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi”.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, tilning bu estetik vazifasi faqat badiiy asar matnida namoyon bo‘ladi, boshqa biron-bir nutq ko‘rinishida til o‘zining bu vazifasini reallashtira olmaydi deb qarash ham asosli emas. Bu ma’noda tilshunos D.N.Shmelevning mana bu fikrlari diqqatga sazovor: “Tilning bu vazifasi (estetik vazifasi) faqat badiiy asardagina namoyon bo‘lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qaratilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz”⁶.

Olimning alohida ta’kidlashicha⁷, so‘zlovchi o‘z nutqining tashqi shakliga e’tibor bera boshlashi, lisoniy ifoda imkoniyatlarini baholashga o‘tishi bilan tilning estetik vazifasi o‘zining boshlang‘ich ko‘rinishida namoyon bo‘ladi, ya’ni so‘zlovchi nimani ifodalashnigina emas, balki ayni shu “nima”ni qanday ifodalashni ham muhim deb hisoblashidan boshlaboq tilning estetik vazifasi ishga tushadi. Jonli so‘zlashuv, kundalik muloqot jarayonidagi ko‘pdan ko‘p o‘tkir hazillar, latifanamo kulgilar, chuqur ma’noli so‘z o‘yinlari, kimlargadir taqlid qilishlar va hokazo holatlarda ham til belgisi, uning badiiy ifoda imkoniyatlariga o‘z-o‘zidan diqqat qilinadiki, bunda tilning estetik vazifasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Badiiy asar tilini o‘rganishdagi ikkinchi, ya’ni lingvopoetik yo‘nalish tilning xuddi shu estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Aytish lozimki, til estetik

⁶ Виноградов В. О языке художественной литературы. – М.: Гостехиздат, 1957. - С. 4.

⁷ Yo‘ldoshev B, Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. – B. 88.

vazifasining asosiy namoyon bo'lish o'rnini badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o'rganish qiyin.

Bizning fikrimizga ko'ra, buning uchun adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo'nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo'nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammodir.

1.2. Badiiy asarning til xususiyatlarini o'rganish tamoyillari

Adabiyotshunoslikda janr va uslub eng murakkab kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ana shu ma'noda badiiy asar tilining ta'sirchanligi, ohangdorligi masalasini o'rganish adabiyotshunoslik fanining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Badiiy asar tili bilan shug'ullanish XIX asrda boshlangan edi. Masalan, italyan tilshunosi Benedetto Krochening fikricha, estetik kategoriyalar individual bo'lganidek, badiiy asar tili bilan bog'liq lingvistik kategoriyalar ham individuallik kasb etadi⁸. Chunki badiiy asar individual shaxs (yozuvchi, shoir yoki dramaturg)ning o'z nutqiy faoliyati mahsulidir. Badiiy asarda til o'zining insonlar orasida aloqa quroli vazifasini to'la saqlagan holda o'zining ekspressiv funksiyasini namoyon etadi. Badiiy til umumxalq tili va adabiy til bilan o'zaro munosabatda bo'lsa-da, farqli tomonlarga ham egadir.

1. Til badiiy - adabiyotning birinchi elementi, obraz yaratishdagi asosiy quroli sanaladi. Badiiy asarda muallif nutqi va bayoniy nutqi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Personajlar nutqini tipiklashtirish va individuallashtirishning badiiy asarda o'ziga xos mezonlari va tamoyillari mavjud. Arxaizm, neologizm, dialektizm kabi leksik vositalar, omonim, sinonim, antonim va paronim singari so'zning shakl hamda ma'no munosabatiga ko'ra turlari badiiy asarlarda muhim

⁸ Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – Toshkent: Fan, 1988. – B.71

uslubiy funksiyalarga ega bo‘ladi. Umuman olganda, milliy adabiy tilning taraqqiyotida mashhur, iqtidorli yozuvchilarning alohida o‘rni bor.

2. Badiiy asar tili va uslubi masalalari deb nomlangan tanlanma fanda ana shu muammolar xususida fikr yuritiladi, filolog talabalarga badiiy asar tili xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko‘nikmalarini singdirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu tanlanma fan badiiy asarning g‘oyaviy-estetik qiymatini belgilashda til vositalarining o‘rni va ularni o‘rganish usullari haqida talabalarga ixcham va asosli ma’lumotlar beradi.

Shubhasiz, badiiy asarda kompozitsiya u yoki bu ijodiy ishning ketma-ketligini, mantiqiy davomiyligini tartibga keltiruvchi asosiy belgilardan biridir. Kompozitsiya lotin tilidan olingan bo‘lib, “composition” ijod, asar degan ma’noga ega. Kompozitsiya har qanday badiiy asarning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, ijod mahsuliga yagona birlik va umumiylikni taqdim etadi, uning elementlarini bir-biriga mos kelishini ta’minlaydi.

Mumtoz badiiy adabiyotda eng ko‘p tarqalgan kompozitsion tur bu rivojlanish (oshib borish, o‘shish) kompozitsiyasi hisoblanadi, u bir nechta murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladigan komponentlardan iboratdir. Syujet (fransuzcha - syujet predmet, mazmun) – adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, aniq voqealar tizmasida namoyon bo‘ladigan harakatlar tarixidir. “Badiiy asar tarkibida so‘zlar hamda iboralar sehrlil va maftunkor raqqosalarga o‘xshaydi”, – degan edi mashhur rus yozuvchisi M.Prishvin⁹.

So‘zlar va iboralardagi ana shunday xususiyatni to‘g‘ri anglash va ularning estetik qiymatini haqqoniy izohlash maqsadida “Badiiy asar tili va uslubi masalalari¹⁰” tanlanma fani oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi fakulteti o‘quv dasturiga kiritilgan.

3. Epistolyar adabiyotda so‘z va gaplar obraz, manzara yaratishning o‘ziga xos libosi, materialidir. Talantli yozuvchilarning sehrlil qalami ostida so‘zlar hayotdagi narsa va hodisalarni inson ongida aniq tiklaydigan, gavdalantiradigan vositaga

⁹ Виноградов В. О теории художественной речи. – М., 1971. – С. 105-211.

¹⁰ Умурув Х. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002. 5-8– В.

aylanadi. Badiiy nutq faqat ko‘chma ma’nodagi so‘zlarning qo‘llanilishidan iborat bo‘lmay, majoziy vositalar badiiy nutqning o‘ziga xos yordamchi vositasidir. Badiiy asarda leksik va frazeologik vositalarning obrazlar xatti-harakatini, ularning boshqa obrazlar bilan munosabatini ko‘rsatishdagi roli hisoblanadi. Badiiy nutq muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iborat matndir. Muallif nutqi va personajlar nutqining o‘zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolaridan biridir.

Ayniqsa, badiiy asar tilini o‘rganishda va uni tahlil qilishda yozuvchining yoki maktub egasining so‘zga munosabati, so‘z tanlash, so‘z qo‘llashdagi mahorati muhim ekanligini, til vositalarini, so‘zlarni ishlatishda uning o‘ziga xos uslubi, mahorati namoyon bo‘lishini akademik V.Vinogradov “Badiiy asar tilini tahlil qilish asar g‘oyasi bilan bog‘liq hissiy mazmuni ifoda etuvchi lingvistik vositalarni ko‘rsatib berishdir¹¹”, – deyar ekan, u to‘la haqlidir.

4. Badiiy asarda syujetning yaratilishini g‘oyaviy mazmun boshqaradi, g‘oyaviy mazmunning talabiga uyg‘un holda xarakterlar namoyon bo‘ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etiladi. Voqealar silsilasi o‘z navbatida asar g‘oyasini badiiylashtiradi, uni tiriltiradi. Syujet obrazlarning o‘zaro aloqalari, ular o‘rtasidan qarama-qarshiliklar, simpatiyalar va antipatiyalar ekan, demak, u hayot ziddiyatlarini ham ixtiro qiladi, umumlashtiradi, kashf etadi. Hayotiy ziddiyatlar asarga ifoda etilgan g‘oyalar, tasvirlangan xarakterlar, kayfiyatlar kurashi tarzida ko‘chadi va u konflikt deb yuritiladi¹².

Badiiy asar tili - obrazli til - yozuvchi o‘z asarida bir qancha yo‘llar bilan tilning obrazligiga, tasviriylikka erishadi. Shulardan biri maxsus badiiy tasviriy vositalarini, maxsus leksik resurslarni, poetik figuralarni, so‘z o‘yinlarini mohirona qo‘llash yo‘li bilan asar tilining obrazlilikiga erishishdir. Badiiy asar tilining poetikligi, obrazlilik, tasviriylik asar g‘oyasini, shuningdek, qahramon xarakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi.

5. Badiiy asar tili ko‘plab o‘xshatish va tasviriy vositalarga boy bo‘ladi va his tuyg‘uga to‘la bo‘ladi, ilmiy asar tili esa teskarisi. Unda aytilayotgan fikr jo‘n,

¹¹ Виноградов В. О теории художественной речи. –М., 1971. –С. 105-211.

¹² Умурув Х. Адабиёт қоидалари. Тошкент: Ўқитувчи. 2002. Б.5-8.

sodda, hech qanday odamni to'ldiradigan so'z tasviri ishlatilmaydi. Badiiy asar tilining asosiy maqsadi go'zallik qonuniyatlariga muvofiq dunyoni rivojlantirish, badiiy asar muallifining ham, o'quvchining ham estetik ehtiyojlarini qondirish, badiiy tasvirlar yordamida o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatishdir. Umuman badiiy adabiyot tilining xususiyatlari bir necha omillar bilan belgilanadi.

U keng metafora bilan ajralib turadi, deyarli barcha darajadagi til birliklarining obrazlilik, barcha turdagi sinonimlardan foydalanish, polemema, so'z boyligining turli uslublari kuzatiladi. Badiiy uslubda (boshqa funksional uslublar bilan solishtirganda) so'zni idrok etish qonuniyatlari mavjud.

So'zning ma'nosi ma'lum darajada muallifning maqsadga muvofiqligi, badiiy asarning janri va kompozitsion xususiyatlari bilan belgilanadi, birinchidan, ma'lum bir adabiy asar kontekstida lug'atlarda yozilmagan badiiy noaniqlikni qo'lga kiritishi mumkin, ikkinchidan, uni saqlab qoladi ushbu asarning mafkuraviy va estetik tizimi bilan bog'liqligi biz tomonidan chiroyli yoki chirkin, ulug'vor yoki poydevor, fojiali yoki kulgili deb baholanadi.

6. Badiiy adabiyotda lingvistik vositalardan foydalanish oxir-oqibatda muallifning xohishiga, asarning mazmuniga, tasvir yaratilishiga va u orqali adresatga ta'sir ko'rsatishiga bog'liq. Yozuvchilar o'z asarlarida, avvalambor, ular fikrni, his tuyg'ularni to'g'ri yetkazish, qahramonning ma'naviy olamini chinakam ochib berish, til va qiyofani real ravishda qayta tiklashdan kelib chiqadi.

Nafaqat tilning me'yoriy dalillari, balki umumiy adabiy normalardan chetga chiqish ham muallifning niyatiga, badiiy haqiqatga intilishiga bog'liq. Adabiyotda til o'ziga xos mavqega ega, chunki bu qurilish materiali, quloq yoki ko'rish orqali seziladigan, ularsiz asar yaratib bo'lmaydi. Tilning eng yaxshi tomoni, uning kuchli qobiliyatlari va noyob go'zalligi badiiy adabiyot asarlarida mavjud bo'lib, bularning barchasiga tilning badiiy vositalari orqali erishiladi. Badiiy ifoda vositalari xilma-xil va ko'p sonlidir.

Tilning ekspressiv vositalariga nutqning stilistik shakllari yoki shunchaki nutq figuralari kiradi: anafora, antitez, birlashmaslik, gradatsiya, inversiya, ko'p foydalanish, parallelizm, ritorik savol, ritorik murojaat, sukut, ellips, epifora.

Badiiy ifoda vositalariga ritm (she'r va nasr), qofiya, intonatsiya kiradi. Odatda, badiiy nutq uslubi uchun odatda va umumiy tomonidan ta'qib qilinadigan alohida va tasodifiy narsalarga e'tibor beriladi.

Badiiy olam – bu “yangidan yaratilgan dunyo”, tasvirlangan voqelik ma'lum darajada muallifning fantastikasi, demakdir nutqning badiiy uslubida asosiy rol subyektiv lahzani o'ynaydi. Atrofdagi barcha voqelik muallifning tasavvurida aks etadi. Ammo badiiy matnda biz nafaqat yozuvchining dunyosini, balki bu dunyodagi yozuvchini ham ko'ramiz: uning afzal ko'rganlari, tanqidlari, hayratlari, radlari va boshqalar. Badiiy nutq uslubining hissiyotlilik va ekspressivligi, metaforik, mazmunli xilma-xilligi yozuvchining qo'llagan badiiy mahoratiga ham bog'liqdir.

7. Badiiy matnda birinchi o'ringa tashqi tuyg'u va tasvirning ravshanligini namoyon qiladi. Ilmiy nutqda aniq belgilangan mavhum tushunchalar, gazeta va jurnalistik nutqda ijtimoiy umumlashtirilgan tushunchalar, badiiy nutqda aniqlangan ko'plab so'zlar aniq, hissiy ifodalarni qamrab oladi. Shunday qilib, uslublar bir-birini to'ldiradi.

Badiiy nutq uchun, ayniqsa, she'riy, inversiya xarakterlidir, ya'ni so'zning semantik ma'nosini oshirish yoki butun iborani maxsus stilistik rang berish uchun jumladagi so'zlarning odatiy tartibini o'zgartirish xosdir. Badiiy nutqning sintaktik tuzilishi muallifning obrazli va hissiyotlari oqimini aks ettiradi, shuning uchun bu yerda har xil sintaktik tuzilmalarni topishingiz mumkin. Har bir muallif o'zlarining mafkuraviy va estetik vazifalarini amalga oshirish uchun lisoniy vositalarni taqdim etadi.

Badiiy nutqda hatto to'g'ri ma'nosida qo'llangan so'z lug'atdagi ayni shu so'z bilan teng kelmasligini, u estetik jihatga ega bo'lgan yaxlit badiiy asar matni tarkibida boshqa so'zlar bilan faqat ma'no va grammatik jihatdangina emas, balki hissiy-estetik jihatdan ham munosabatga kirishish mumkinligini M.M.Yo'ldoshev to'g'ri ko'rsatib o'tadi¹³.

¹³ Saidxonov M. O'zbek tilida noverbal vositalar va ularning qo'llanishi: Filol. fan. nomz...diss. avtoref. – Toshkent, 49-b

8. Biror asarni o‘qish aniq va oson, boshqa uslublardan foydalanish faqat rang va haqiqiylikni yaratish uchun juda muhimdir. Ammo badiiy uslubda maqolalar yozayotganda, tilni diqqat bilan kuzatib borishingiz kerak. O‘quvchining qahramonlarga yoki voqealarga munosabatini shakllantirish uchun muallif o‘z his-tuyg‘ularini yetkazadi. Bundan tashqari, uning munosabati ijobiy ham, salbiy ham bo‘lishi mumkin.

Badiiy asar tilini ifodalashning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu rang-tasvirdir. Yozuvchi rangni atmosferani namoyish qilish, qahramonlarni tavsiflash uchun ishlatadi. Ohanglar palitrasi asarga chuqurroq kirib borishga, muallif tomonidan tasvirlangan voqealar rivoji va qahramonni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Tilshunos S.Karimov badiiy asar tiliga e‘tibor qaratib “Til tasviriy vositalarining paydo bo‘lishi badiiy ijod namunalarini bir qadar go‘zal, jarangdor, ta’sirli qilib bayon etish zaruriyatidan kelib chiqqan”, degan fikrni bejiz aytmagan¹⁴.

9. Badiiy olam – bu muallif ko‘rgan dunyo: uning hayratlanishi, afzal ko‘rishi, rad etilishidir. Bu hissiyotga va kitob uslubining ko‘p qirrali bo‘lishiga olib keladi. Badiiy uslub - bu asar yaratish uchun qurilish materialidir. Fikrni to‘g‘rni ifoda etish uchun kerakli so‘zlarni topib, syujet va qahramonlarni faqat muallifgina topishi mumkin. Faqatgina yozuvchi o‘quvchilarni o‘zi yaratgan maxsus olamga kirishga va qahramonlarga mehr uyg‘otishga qodir.

1.3. Bolalar adabiyotining til xususiyatlari

Bolalar adabiyoti deb turli yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan so‘z san’atidagi hayotiy, tarixiy, uydirma voqeliklarni bolalarcha idrok ettiradigan asarlar majmuasiga aytiladi. Bolalar adabiyoti yozuvchilari, mualliflari esa bolalar yozuvchisi yoki bolalar shoiri deyiladi¹⁵.

O‘zbek bolalar adabiyotining serqirra ijodkorlaridan biri Anvar Obidjonidir. U o‘zining bolalar tasavvuriga, tafakkuriga mos asarlari bilan bolalar adabiyotining rivojiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan. Anvar Obidjon hikoyalari bolalarning

¹⁴ Виноградов В. О языке художественной литературы.-М.: Гостехиздат, 1957.-С.4.

¹⁵ Йўлдошев Б, Қурбонов Т. Бадий асар тили ва услуби масалалари. Самарқанд. 2006. Б.88

dunyoqarashlaridan, qiziqishlaridan kelib chiqib yozilgan. Shu sababli Anvar Obidjon barcha bolalar ko'ngliga yo'l topa oladi. Anvar Obidjon hikoyalarini o'qigan ota-onalar, katta yoshli insonlar ham o'zlarini bolalar olamiga kirib qolgandek his qilishadi¹⁶.

Anvar Obidjon hikoyalarida bolani tarbiyalaydigan, zukkolikka chorlaydigan jihatlari nihoyatda ko'p. Ayniqsa, "Atrofimizdagi qiziqchilar" nomli yumoristik turkumida ba'zi hayvonlar haqida hikoyalar keltirilgan. Hikoyadagi qahramonlar ya'ni hayvonlar obrazi orqali, yomonlik, yaxshilik, qahramonlik, ayyorlik, vatansevarlik va shu kabi ko'plab xislatlar ochib berilgan. Shu bilan birga, hikoyalarning so'ngida bolalarning fikrini bilish uchun savollar ham keltirilgan.

Shu savollar orqali bolalarning aqlini charxlash ko'zda tutilgan. Savollarning har biri bolalarning fikrlashlarini yaxshilash uchun, dunyoqarashlarini kengaytirish uchun nihoyatda mukammal va mulohaza qilish uchun o'ta puxtalik bilan qo'yilgan. "Atrofimizdagi qiziqchilar" yumoristik turkumidagi "Kuchukning hikoyasi" nomli hikoyani o'qir ekansiz, opa-uka kuchuklar timsolida bir-biriga mehirsiz opa-ukalar ko'z oldingizga kelishi tabiiy.

Negaki, ushbu hikoyada opa-uka kuchuklar orqali mehirsiz qarindoshlarning illatlari ochib berilgan. Hayvonlar obrazi orqali shunday illatlarga ega insonlarga ishora qilingan. Kichik yoshli bolalarga bemehrlik so'zini ishlatib kattalar dashnom bersa bir-biringizga mehrlil bo'ling, bemehr bo'lmang deyishsa, bolalar bu so'zning mohiyatini anglab olaolmasligi tabiiy hol. Lekin, bu hikoya orqali bolajonlar osonlik bilan ushbu so'z ma'nosini anglab yetadi va mulohaza yuritadi.

Hikoya so'ngidagi "Ishqilib sen ukangni xafa qilmayapsanmi, qizaloq?" savoli esa bu hikoyani o'qiyotgan o'quvchini o'yga to'ldiradi va o'quvchining shu zahoti o'zi haqida xulosa chiqarishiga turtki bo'ladi. Ukasini xafa qilmasa, o'zining mehribon opa ekanligidan suyunadi. Agarda ukasini xafa qilsa, bu hikoyani o'qiganidan keyin qaytib ukasini xafa qilmaslikka harakat qiladi, hikoyadan o'rnak oladi.

¹⁶ Anvar Obidjon. Hajviy hikoyalar to'plami. – Toshkent: Sharq, 1978-1983.113- 118- 140-betlar.

“Buzoqning yugurgani hikoyasi” nomli hikoyani o‘qib, o‘quvchilar birovning haqqini yeb yurgan razil, insofsiz kimsalar haqida tushunchaga ega bo‘lishadi. Ushbu hikoya bolalarni to‘g‘rilikka, halollikka chorlaydi. Hikoya so‘ngida keltirilgan “*Buzoqning yugurgani somonxonagacha*” maqoli orqali esa har qanday yomon ish qilganlar albatta qo‘lga tushishi, hech qachon qochib qutilaolmasligini, jazo muqarrar ekanligini anglab yetishadi.

Hikoyada birovning haqqini yeb yurgan kimsalar bir-biriga o‘xshash bo‘lganligidan foydalanayotgan ayyor buzoqcha timsolida ochib berilgan. Anvar Obidjonning ushbu hikoyasining boshqa hikoyalardan farqli jihati shundan iboratki, hikoyada yomonlik qilgan kishiga jazo muqarrarligi maqol orqali yanada mukammal isbotlab berilgan.

Hikoyaga boshqa tomondan ham nazar solsak onalarning qanchalik mehribon bo‘lishi, hatto o‘z farzandi emasligini bilsada, o‘z farzandidek ko‘rganligi umuman olganda ona muhabbati, mehribonligi ham yaqqol ochib berilgan. Aynan shu to‘plamdagi yana bir hikoya ham bolalarga hayvonlar haqida bir muncha yangiliklar va fikrlar beradi¹⁷.

Bu “Echkiemarning hikoyasi” nomli hikoyadir. Bu hikoya orqali o‘quvchi yangi ma’lumotlar bilib oladi. Ushbu hikoyada Echkiemar va timsoh bir-biriga qarindoshligi aytib o‘tilgan. Bu fikr o‘quvchilar uchun yangi ma’lumotdir. Bundan tashqari hikoyada nima uchun bu hayvon aynan echkiemar deb nomlanishi kulgu ostida, qiziqarli qilib aytib o‘tilgan.

Hikoya zamirida bir-biri bilan turar joy uchun talashib, yuz ko‘rmas bo‘lib ketadigan insonlar echkiemar va timsoh obrazlarida keltirilgan. Anvar Obidjonning yuqorida keltirilgan hikoyalari kabi o‘quvchilarga yangi ma’lumotlar beradigan, zukkolikka chorlaydigan, o‘ylashga majbur qiladigan asarlari juda ko‘p. O‘ylash orqali esa o‘quvchilar tafakkuri, ongi va ma’naviyati yuksalib boradi.

Shu sababli Anvar Obidjon hikoyalarini va boshqa asarlarini mutolaa qilish bolalar uchun juda foydalidir. O‘qishni bilmaydigan bolajonlar uchun ularning ota-onalari ushbu hikoyalardan o‘qib berishsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Xullas,

¹⁷ Anvar Obidjon. She’rlar va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2006.. 57. – B

Anvar Obidjon asarlari bolalar adabiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalarni vatanga, qon-qarindoshlarga, umuman olganda, barchaga mehribonlik qilish, har doim adolatli bo'lishlari kerak ekanligini bolalarga uqtiradi. Anvar Obidjon asarlari orqali bolalar ma'nan yetuk, zukko o'z mustaqil fikriga ega insonlar bo'lib yetishadilar.¹⁸

Mustaqillik yillarida bolalar she'riyati ham insoniyat bolaligi singari sodda va beg'ubor samimiyatga yo'g'rildi. Lekin bu olamda turli-tuman ziddiyatlar, bo'htonlar, murakkabliklar yo'q degani emas. Ushbu ma'naviy hudud insoniyatning bir parchasi sifatida uning kechmishida uchraydigan butun murakkablik va ziddiyatlarni o'ziga xos tarzda namoyon qiladi. Shu bois bolalar, bir tomondan, aqlli, mard, qo'rqmas, adolatparvar, vijdonli, vatanparvar bo'lishsa, ikkinchi tomondan, sho'x, o'yinqaroq, *yerga ursa ko'kka sapchiydigan*, to'palonchiligi, goho dangasa, yalqovligi, ba'zan esa nafsini tiyolmasligi, shirinlikka o'chligi, ochofatligi bilan ham diqqatni tortadi. Bolalik dunyosi ayni shu jihatlari bilan kattalar olamidan farqlanadi.¹⁹

Anvar Obidjon o'z asarlarida bolalar ruhiy-ma'naviy dunyosiga xos biror-bir kulgili detalni topadi va uni poetiklashtirib, bola ruhiyatining yumoristik tasvirini ifodalovchi manzaraga aylantiradi. Bola ruhiyati bilan ushbu manzara o'rtasidagi nomutanosiblik esa quvnoq, beg'araz va samimiy kulgini hosil qiladi.

Masalan, "Velosiped buzilganda" she'rida *yuz-qo'lini moy qilib gayka burayotgan Sotimboyning ahvoli quyidagicha chiziladi:*

Yuz-qo'lini

Qilib moy,

Gayka burar

Sotimboy.

Kulib boqar

¹⁸ G. Rahimova. Bolalar adabiyoti o'quv qo'llanma. Samarqand. SamDU 2022-316-bet.

¹⁹ Anvar Obidjon. She'rlar va hikoyalar -Toshkent „Sharq“-2006-57-bet

Sotimga
Tagi ko‘chgan
Botinka.

“Bahromning hikoyalari”²⁰

Sotimning o‘yinqaroqligi, velosipedni tindirmasdan minishi oqibatida uning buzilishi-yu, Sotimboyning moyga botib uni tuzatishi – bular barchasi “tagi ko‘chgan botinkaning Sotimga kulib qarashi” xarakterli manzara-detali orqali hajviy mazmun bilan boyitilgan. Bu o‘rinda tagi ko‘chgan botinkaning go‘yo “kulib” qaraganga o‘xshatilib jonlantirilishi she’rning poetik mazmunini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Anvar Obidjon sho‘x, quvnoq bolalar ruhiyatini teran his etadigan va eng muhimi, ushbu holatni poetik mahorat bilan tasvirlash salohiyatiga ega shoir. “Fatxullaning kurkasi” she’rida shu xususiyat yaqqol sezilib turadi. She’rda ukasining: “Fatxullaning kurkasi quvdi”, degan shikoyatini eshitgan Nor shunday xulosaga keladi:

G‘ijinib musht tugdi Nor:

– Boplab qasos olamiz.

Kurkani...

Yo‘q, yaxshisi,

Fatxullani solamiz!

“Bahromning hikoyalari”.

Ko‘rinib turibdiki, Nor tabiatiga xos bo‘lgan urushqoqlik illati uning o‘z tilidan fosh qilinmoqda.

²⁰Anvar Obidjon. She’rlar va hikoyalar -Toshkent „Sharq“-2006. 57-bet

Anvar Obidjonning xalq og‘zaki ijodi ruhida yaratilgan “Bo‘rining doktor bo‘lgani haqida ertak” asarida yirtqich bo‘rining o‘rmonga doktor bo‘lishi va undan keyingi faoliyati zaharxanda kulgi bilan fosh etiladi. Soxta “doktor” oldiga kasal bo‘lib kelgan quyon va to‘ng‘izni davolayman deydi-yu, lekin aslida yeyishni ko‘zlaydi. Biroq uning bu qabih niyatini anglab qolgan quyon bilan to‘ng‘izcha juftakni rostlab qolishadi. Keyinroq kelgan tulki esa unga yem bo‘ladi. Bo‘ri bemorni qabul qilish daftariga quyidagilarni yozib qo‘yadi:

Qo‘lin tirnab bo‘ztikan

Tulki keldi notetik.

Ahvoli og‘ir ekan,

Chora topmadik...

Yedik!

“Bahromning hikoyalari”

Bo‘rining oldiga ishtahasi yo‘qligidan shikoyat qilib Sher tashrif buyuradi. Bo‘ri unga xushomad qilib vitamin zarurligini, vitamin esa semiz hayvon go‘shida bo‘lishini aytadi. Bu gapni eshitgan Sher uzoq o‘ylab o‘tirmasdan quyidagicha qarorga keladi:

Qo‘ldan bersam imkonni,

So‘ng yurarman armonda.

Sendan semiz hayvonni

Topish mushkul o‘rmonda.

Qadrlayman men har choq

Tabiblarning so‘zini,

Totmoqchiman hoziroq

Vitaminning tuzini.

Shu tariqa yirtqich bo'ri Sherga "vitamin" bo'lib ketadi, hayvonlar esa o'zlariga beozor quyonni doktor qilib saylaydilar.

Anvar Obidjonning poetik mahorati shundaki, Quddus Muhammadiy yaratib ketgan ba'zi bir obrazlarga qayta qo'l urar ekan, uning yangi, original, quvnoq yumorga boy bo'lgan yangicha qiyofasini qisqa, ixcham, poetik ko'chimga boy majoziy obraz darajasiga ko'tara oladi. Masalan, "Sabzi" she'rida shoir yaratgan poetik obraz quyidagicha namoyon bo'ladi.

Yupqagina

Po'stim bor,

Dalada ko'p

Do'stim bor.

Maqolda ham

Yoziqman.

O'sha

"Oltin qoziq" man.

Yotsam

Yerga qapishib,

Dumginamdan

Tortishib,

Tashladilar

O‘raga...

Salom

Palov to‘raga!

Bu yerda shoir *sabzi* obrazini kitobxonlar tasavvurida jonlantirishda o‘ziga xos tasvir usullaridan, qofiya san’atidan unumli foydalanadi. Xalq maqol-topishmog‘ini eslatish bilan uning ko‘rinishini bolalar yodiga tushirsa, “po‘stim”, “do‘stim”, “yoziq”, “qoziq” kabi qofiyalar orqali badiiy ohangning ta’sirchanligi va quvnoqligiga erishadi. Ayniqsa, she’rning yakunidagi “Yotsam yerga qapishib, dumginamdan tortishib” kabi misralar yumoristik kulgi hosil qilsa, “Salom Palov to‘raga!” misralari uni real hayotga yaqinlashtiradi, bola ruhiyatiga o‘ziga xos iliqlik olib kiradi.

Shoir bu she’riy turkumlarda turli xil hayvonlar, jonivorlar, kiyim-kechak, predmetlarni jonlantirib, ularning majoziy obrazini yaratdi. Shoirning mahorati har bir obrazni uning o‘ziga xos xususiyati, belgisi, rangi, ta’mi, tuzilishi yoki boshqa jihatlarini zukkolik bilan topilgan badiiy detallar, savol-javoblar, diologik nutq vositasida yaratishda namoyon bo‘ladi. Bu hol bolalarda she’rda qalamga olingan narsa-predmetlar obrazini qiyoslash orqali tez tasavvur qilish imkoniyatini tug‘diradi.

“Boshma-bosh” she’rida esa o‘zlariga tanish bo‘lgan eski-tuski narsalarni yig‘ib yuruvchining “Shara, bara-a” manzarasini echkinning majoziy obrazi orqali ko‘rishlari bolalarda o‘zgacha bir zavq hosil qiladi. Ular hayotda uncha e’tibor bermagan “sharabarachi”dagi yumoristik holatlar mazkur she’rda nozik idrok etilganidan hayratga tushishadi. Buning asosiy sababi echkinning “Shara-bara”chi sifatida tanlanganligidir. Agar echkinning o‘rniga boshqa hayvon obrazi tanlanganda, she’r bu darajada muvaffaqiyatli chiqmasligi mumkin edi:

Bo‘ynin cho‘zib qichqirgancha

“Shara, bara-a!”

Ko‘cha kezar Echki

Eshakaravada.

Der:

– Bolalar,

Zor emasman

Choy puliga.

Pufaklarni almashaman

Ko‘k suliga.

“Juda qiziq voqea” Echkining bo‘ynini cho‘zib “Shara, bara-a!” deb qichqirishi juda topib qo‘llangan poetik tasvirdir. Bu o‘rinda jonlantirish orqali echkining yumoristik obrazi yaratilishi barobarida, kitobxonning ko‘z o‘ngida bu hayvonning bo‘yin cho‘zib “baa-a” deb ma’rashi ham keladiki, ushbu hol she’rning badiiy-estetik qimmatini yanada oshiradi. Zero, Anvar Obidjon ijodining o‘ziga xos jihatlari o‘ta jiddiy vaziyatni kulgili, ayni chog‘da, haqqoniy va tagdor qilib tasvirlashida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham “Anvar Obidjonning ijtimoiy xarakterdagi she’rlari ko‘pqatlamliligi bilan yaqqol ajralib turadi. Ularni bolalar ham, kattalar ham qiziqib o‘qiydilar va ma’naviy ma’nolarni o‘z mushohadalari doirasida dilga singdiradilar. Shoir “Sigir qo‘shig‘i”, “Parvarda”, “Yirtqich” kabi she’rlarida kichkintoylarning dunyoni anglashga intilish jarayonlaridagi kattalar bilan to‘qnashuvi, ota-onalar va bolalarning ba’zan birbirlarini to‘g‘ri tushunmasligi bois sodir bo‘luvchi turli anglashmovchilik oqibatida kelib chiqadigan dramatik holatlarni kulgili tarzda ko‘rsatadi”.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek bolalar adabiyotining serqirra ijodkorlaridan biri Anvar Obidjon she’rlarida mahorat bilan qo‘llangan poetik

obrazlarining barkamol inson tarbiyasidagi ahamiyati nihoyatda kattadir. Ular bolalarning ilm-ma'rifatga bo'lgan rag'batlarini oshiradi, dunyoqarashlari, qiziqishlari, o'zlari va atrofdagilarga, ota-ona va o'qituvchilariga, katta yoshli insonlarga ham o'zlarini bolalar olamiga kirib qolgandek his qilishadi va munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga undaydi hamda zukkolikka chorlaydi.

II BOB. O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI TILNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

2.1. Bolalar adabiyotida ma’nodosh so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlari

Badiiy matni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, ko’p ma’noli, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi. Ma’nodosh so‘zlar tilning lug’aviy jihatdan boylik darajasini ko’rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so‘zlarning ko’p bo’lishi tilning estetik vazifasini yana-da to’liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o’rganilgan hodisadir. O‘zbek tili ma’nodosh so‘zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma’nodosh so‘zlar ichidan tasvir maqsadiga eng munosibini topib ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladilar.

Ta’kidlash joizki, Tursunboy Adashboyev asarlarida ma’nodosh so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlari alohida o‘rin tutadi. An’anaviy mavzulardan yana biri onasiga bag‘ishlangan she’rlar tarzida namoyon bo‘ladi. Zero farzandini to‘qqiz oy bag‘rida asragan, bir parcha etligidan voyaga yetkizib, tarbiyalab, oq yuvib oq taragan ona ta’rifiga madhiya bitmagan shoir topilmasa kerak.

Tursunboy Adashboyev ham 1976-yilda yozilgan “Onajonim non yopar” she’ridan boshlab, “Yodgorlik” (1982), “Onajonim” (1988), “Yo‘lchi yulduz” (2003) kabi bir qator she’rlarini mehribon onasi ta’rifiga bag‘ishlaydi. “Onajonim non yopar” she’rida shoir otasi urushga ketib, onasi bilan yakka qolganligi, otasi tishlagan patir hamon mixda osiqligini onasining non yopishiga bog‘lab

tasvirlangan. Tursunboy Adashboyev she'rlarida ijodiy izlanish mahsuli bo'lmish ma'nodosh so'zlar tartibining turfa ko'rinishlarini uchratish mumkin.

“Onajonim” she’ri shu jihatdan e’tiborga sazovor:

Ma’no to‘la gapida,

O‘ng qo‘lida rapida,

Onajonim non yopar.

Chopar edim bog‘ ora,

Qo‘lda singgi zog‘ora,

Jonajonim non yopar.

Jang borardi o‘lkada,

Yurt tashvishi yelkada,

Charog‘bonim non yopar

Otam tishlagan patir,

Hamon mixda turadir

Nur jahonim non yopar.

O‘sha to‘qochga moslab,

Zuvala urib, rostlab,

Mehribonim non yopar

“Onajonim”²¹ she’ri urush davrining og’ir bolaligini xotirlash va o’g’lini mustaqil hayotning sermashaqqat yo’liga 149 kun kuzatib, “ulkan bardosh va to’zim tilagan” ona xotirasiga bag’ishlangan. U keyinchalik bu she’rni qayta ishlab, “Yo’lchi yulduz” nomi bilan “Orzularim – qo’sh qanotim” saylanmasiga kiritadi. Shoir onasining yorqin ruhini o’zining **yo’lchi yulduzi** deb atab, uni she’r sarlavhasiga chiqarganligi she’r ruhiga yanada muvofiq tushgan. Bu yerda shoir o’zining she’rlarida onasini, ya’ni ona timsolini “onajonim”, “jonajonim”, “charog’bonim”, “nur jahonim”, “mehribonim” deb, turli xil ohangdosh, ma’nodosh so’zlaridan foydalangan.

O’zbek bolalar she’riyati tadqiqotchisi R.Barakayev, Tursunboy Adashboyev ijodining o’rganishda natijasida, bolalarga xos matnlar, badiiy she’rlarda musiqiylik, ohangdoshlikning benihoya oshishiga xizmat qilgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki. ularning dunyoqarashiga mos tushuncha va tasavvur gnostik xissiyotga asoslanishi, turli yosh davrlarida xronologik yosh ko’rsatkichidan tashqari bolaning ichki olamida, ruhiyatida yuz beradigan kechinmalar bolalarda refleksiya faoliyatini yuzaga chiqarish voqealanishi nazarda tutildi. Yoki boshqa bir ijodkorning asarlarini o’rganganimizda ham leksik-semantik xususiyatlari haqida o’zining asarlarida ham ma’nodosh so’zlardan ko’p ishlatganligi bizga ma’lum. O’zbek bolalar adabiyotining zabardast vakillaridan bir Xudoyberdi To’xtaboyev asarlarida ham uchratishimiz mumkin.

Masalan: “Qasoskorning oltin boshi” romanida *Bir ayol boshida qirq yamoq to’n, yuziga chachvon o’rniga doka tutib olib, ikki **sag’iri** ikki yonida, labi uchgan sopol tovoqqa tikilganча **yetimlar** haqidagi bir baytni mungli ovoz bilan o’qiy boshladi:*

Bugun bozorga o’xshaydir,

Yetimlar zor –zor qaqshaydir.

Alarning holini so’rsang,

²¹ Rahmatulla Barakayev, Baxshillo ashurov “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” Toshkent “Akademnashr” “Arslonbob afsonasi”, 8-9 b

Ota-onasi yo‘qqa o‘xshaydir²²...

Bu yerda yozuvchi ya’ni “yetim”, “sag‘ir”, “ota-onasi yo‘q” kabi ma’nodosh so‘zlardan foydalangan.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi” romanining XVI bobi, “Mardlar bilan go‘zal ekan bu dunyo” qismida baxshi tomonidan kuyib-yonib aytilgan qo‘shiqda ham ma’nodosh so‘zlardan foydalangan.

Jo‘yidevonada kata jang bo‘ldi,
Goh u tomon, goh bu tomon tang bo‘ldi,
Otishmadan quloqlar batang bo‘ldi,
Ne-ne mardlar **shahid ketdi**, do‘stlarim.

O‘zi arslon, nomi edi Sherniyoz,
Kambag‘alga g‘amxo‘r edi qish-u yoz,
Qo‘rquv nima bilmas edi u shovvoz,
Sherniyozdek **botir ketdi**, do‘stlarim.

Oqil,dono kamtar edi Shohamin,
Titrar edi uni ko‘rsa har zolim,
Zolimlarga qiron soldi polvonim,
Shohamindek **dono ketdi**,do‘stlarim.

²² Rahmatulla Barakayev, Baxshillo ashurov “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” Toshkent “Akademnashr” – 2017 (367-368 b)

Qozoq o‘g‘li, yetimparvar Esergap,
Har yetimga nafim tegsin bugun, deb
Halok bo‘ldi kata jangda qillich yeb,
Esergepdek **shovvoz ketdi**, do‘stlarim²³.

Bu asarda ham sinonimdan yaxshigina foydalangan, “*shahid ketdi*”, “*botir ketdi*”, “*dono ketdi*”, “*shovvoz ketdi*” O‘zbek bolalar adabiyoti tilning leksik-semantik xususiyatlari ma’nolarida “*halok bo‘ldi*” so‘zini anglatadi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romanida Hoshimjon obrazli yigit dars jarayonida ustoz Ro‘ziyev uyga vazifani ayt degan paytda, sinfdoshi Orifjondan so‘raganida pichirlab aytgan gaplarini oqizmay-tomizmay takrorlab aytganida sinfda gurillab kulgu ko‘tarildi. O‘zi ham mazza qilib kulguga qo‘shilib, keyin bilsa sharmanda bo‘lganini, tug‘ilganiga ming bor pushaymon bo‘lganini bilgandan keyin, Orifjondan o‘ch olish maqsadida, kuchugini bahona qilib, urushib ketadi.

– Menga qara, – dedim chinorning tagiga yetganda biqiniga turtib, – nega mening kuchugimni urding?

– Qachon uribman?

– O‘tgan yili urding-ku!

– Hecham urganim yo‘q.

– Urgansan, mana bunday qilib urgansan, – dedim-da, boshiga bir musht tushurdim. Keyin ... uyog‘ini o‘zingiz ham bilib turgan bo‘lsangiz kerak, kattagina mushtlashish bo‘ldi. Bolalarning yarmi Orif taraf bo‘lishdi, yarmi men taraf. Kiyim-boshlarimiz dabdala bo‘ldi, yuzlarimiz qonga bo‘yaldi...

²³ Xudoyberdi To‘xtaboyev “Qasoskorning oltin boshi” Yangi asr avlod Toshkent -2019 12-15 betlar

Lekin men xursand edim, o'ch olganimdan *xursand edim*, yuz-ko'zi demay savalaganimdan o'zimda yo'q *shod edim*. Xullas kayfim chog' edi²⁴ *Bu yerda yozuvchi asarda o'zbek bolalar nutqining lingvistik xususiyatlarini yoritishdan iborat. "xursand edi", "shod edi", "chog' edi" ma'nodosh so'zlardan foydalandi.*

Ijodkor so'zning leksik ma'nosi bilan bir qatorda uning uslubiy bo'yog'ini yaxshi bilish zarur. So'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish har qanay bola nutqini aniq va ta'sirli, jozibali, bo'lishini ta'minlaydi.

2.2 Bolalar adabiyotida zid ma'noli so'zlarning uslubiy imkoniyatlari

Zamonaviy tadqiqotlarda antonimiyani o'rganishning lingvistik va psixolingvistik jihatlari konsepsiya sifatida qarama-qarshi narsa inson ongining tabiiy moyilligining o'ziga xos namoyondalaridan biri bo'lib, kundalik hayotda, ilmiy bilimlarda, falsafiy inshootlarda turli xil g'oyalar asosida yotadi. Shuni ta'kidlash kerakki, qarama-qarshilikni his qilish va idrok etish ma'lum darajada odamlarning yoshiga, kasbiga, geografik, iqlimiy, ijtimoiy va boshqa yashash sharoitlariga bog'liq bo'lishi mumkin va ba'zan juda subyektiv bo'lishi mumkin²⁵.

Antonimlar nisbatan yaqinda, XX asrning 50-yillarida lingvistik tahlil mavzusiga aylandi. Rus antonimiyasini o'rganishga qiziqish sezilarli darajada oshdi. So'nggi o'n yilliklarda antonimiyaning umumiy va o'ziga xos masalalarini o'rganishga, shuningdek, antonim lug'atlarini yaratishga bag'ishlangan ko'plab qimmatli tadqiqotlar paydo bo'ldi. Buni bir qator maxsus lingvistik va psixolingvistik tadqiqotlarning paydo bo'lishi tasdiqlaydi. Antonimiyaning eng muhim muammolari (antonimik munosabatlarning tasnifi, xususiyatlari) Yu.D. Apresyan, N. S. Valgina, L.A.Vvedenskaya, M. R. Lvov, L. A. Novikov, D. E. Rozental, I. L. Filonenko va boshqalarning ko'plab nashrlarida ko'tarilgan. Ushbu muammo turli yo'nalishlarda va turli qismlarning materiallari asosida ishlab chiqilgan nutqlar.

²⁴ Xudoyberdi To'xtaboyev "Sariq devni minib" romani 9-10 betlar. "Yangi asr avlodi" Toshkent 2019

²⁵ Alamazon va uning piyodalari. Qissa va hikoyalar/ A.Obidjon.-Toshkent: Yangi asr avlod, 2014.-160 bet.

Tilning soʻz birikmalarining leksik birliklari koʻp maʼnoli soʻzning leksik-semantik variantlari sifatida oʻxshashlik yoki tutashlik boʻyicha ularning assotsiativ aloqasi asosida chambarchas bogʻliqdir. Antonimiya bir hil obyektlar, hodisalar, harakatlar, fazilatlar va xususiyatlarning sezilarli farqlarini aks ettiruvchi qarama-qarshi assotsiatsiyaga asoslangan

Tilshunoslar Yu. D. Apresyan, M. R. Lvov, D. E. Rozental antonimlarni (anti - qarshi + onyma - ism) qarama - qarshi hodisalarni belgilash uchun xizmat qiladigan tovush va imlo jihatidan farq qiluvchi, bir-biriga qarama-qarshi maʼnolarga ega boʻlgan nutqning bir qismidagi soʻzlar sifatida belgilaydilar va juftlarni hosil qiladilar: *haqiqat-yolgʻon, yaxshi-yomon*

Antonimlar koʻpincha majoziy taqqoslashni ifodalash, belgilangan tomonning turli tomonlarini baholash, obyekt xususiyatlarining namoyon boʻlish oʻlchovi, hodisaning mohiyatini ochib berish uchun ishlatiladi. Tilning estetik funksiyasini amalga oshirishda keng qoʻllaniladigan antonimlarning semantik funksiyalari juda xilma-xildir. Ular inson faoliyatining eng muhim sohalari bilan chambarchas bogʻliq va uning fikrlari, his-tuygʻulari, irodasining majoziy, baholovchi ifodasidir.

Tildagi antonimlar juft korrelyatsiyani²⁶ tashkil qiladi. Biroq, koʻp sonli qatorlar mavjud: *quvnoq - qaygʻuli, qaygʻuli, zerikarli, zerikarli*. Sinonim va antonimik munosabatlarning oʻxshash korrelyatsiyasi soʻz birikmalaridagi soʻzlarning tizimli aloqalarini aks ettiradi.

Oʻqigan asarlarimiz shuni koʻrsatadiki, bolalar adabiyotida zid maʼnoli soʻzlar juda koʻproq qoʻllanilishi kuzatiladi, masalan: Anvar Obidjonning “Alamazon va uning piyodalari” qissa va hikoyalarida bosh qahramoni *Alamazon va Eshmat* ismli bolalar bu kitobdagi oʻta ajabtovur qissaning asosiy qahramonlaridir. Ular xazina topish umidida togʻdagi gʻorlardan biriga kirib, oʻrta asrlar timsolidagi gʻaroyib mamlakatga borib qolishadi. Barcha ichakuzdi voqealar ana shundan keyin boshlanadi.¹

²⁶ Korrelyatsiya - lot. correlation-oʻzaro nisbat, munosabat. 1. Narsalar va tushunchalar oʻrtasidagi munosabat. Oʻzbek tili izohli lugʻat 2-jild. . “Oʻzbekiston nashriyoti” Toshkent-2020.

Toshtaqa qishlog‘i Yelkantog‘ning tik va zabardast qoyalari bilan uch tarafdin qurshab olingan.

Yuqoridan turib qarasangiz, qishloq afsonaviy devlar tulporidan tushub qolgan bahaybat taqaning o‘rtasida turganga o‘xshab ko‘rinadi. Shu qishloqda qiyg‘irko‘z bola, ya‘ni Alamazon haqida gapirsak, “Alamazon” toshtaqaliklar shevasida gurkirab yonayotgan gulxanni anglatadi. Bola yoshlikdan uchta narsani xush ko‘radi: birinchisi – futbol o‘ynab charchagach, cho‘zilib kitob o‘qish; ikkinchisi kitobda o‘qiganlari haqida miriqib xayol surish va xayoldan junbushga kelgan tuyg‘ularini qog‘ozga to‘kib she‘r mashq qilish; uchinchisi oq qog‘ozga termilishdan ko‘zi tinganda dunyodagi barcha tashvishlardan voz kechib, sillasi quriguncha yana to‘p tepish. Ko‘proq kitob o‘qish natijasida Alamazon odamlarga yaxshilik tilashni o‘rgangan, haqiqat va ezgulik, yolg‘on va olchoqlik²⁷ ustidan g‘alaba qilishi muqarrarligini tushunib yetgan edi.

Kattalarga atalgan kitoblarni o‘qigan sayin unda odamlarga bevosita yaxshilik qilish istagi kuchaya bordi. Anvar Obidjon “Alamazon va uning piyodalari” Bu *asarda haqiqat va ezgulik-yolg‘on va olchoqlik yaxshilik va yomonlik* zid ma‘noli leksik-semantik so‘zlaridan foydalanilgan.

Alamazonning yana bir g‘alati xislati shu ediki, biron - bir kitobni o‘qib chiqqach, undagi bosh qahramonga taqlid qila boshlardi. Masalan, u “Gamlet” ni o‘qib yurgan pallada biroz parishonxotir va bosiq bo‘lib qoldi. Muallimlar, “Shumtakaga insof kirganga o‘xshaydi”, deb sevinib yurishganda u “Shum bola”ni o‘qishni boshlab yubordi-yu, aynib ketdi.

Bu bilan Alamazonni kitob o‘qish jarayonida ham zid ma‘noli so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin. “Gamlet ” ni o‘qib o‘zini tartib intizomli bola bo‘lishi, “Shum bola”da esa aksincha, aynib ketishi, ya‘ni betartib holda kuzatilgan²⁸. Bu yerda ma‘no jihatidan ham zid ma‘nolida foydalangan.

2.3. Bolalar adabiyotida ko‘p ma‘noli so‘zlar

²⁷ Olchoq – O‘ta ketgan razil, pastyovuz, nomard; xoin. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 3-jild. “O‘zbekiston nashriyoti” Toshkent-2020.

²⁸ Anvar Obidjon “Alamazon va uning piyodalari” qissa va hikoyalar. : Yangi asr avlod, 2014. - 8-bet.

Tildagi soʻzlar bir maʼnoli va koʻp maʼnoli boʻladi. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir maʼnoni ifoda etuvchi soʻzlar bir maʼnoli soʻzlar deyiladi. Masalan, *zilol suv, yoʻl yoqasi, ona tili, koʻngil, artist, agronom, tana, fonema* va boshqalar.

Masalan: Bolalar yozuvchisi Xudoyberdi Toʻxtaboyev “Sariq devni minib” romanida Hoshimjon ustozlaridan achchiqlanib, oʻsha kuni kechasiyoq qahramonliklar koʻrsatib, shon-u shuhrat taratib, oʻqituvchilarimni, Otajon Azizovichni hayratda qoldirish niyatida safarga otlandim.

Xayr, jonajon qishlogʻim, hayqirib toshdan- toshga urilib oqayotgan zilol suvli anhorlar, poyonsiz mevazor bogʻlar, hammangizga xayr! Yoʻl yoqasidagi azim yongʻoqlar, sizlar ham yaxshi qoling. Endi sizlarga hech kim tosh otib, shoxingizni sindirmaydi, tanangizga mix qoqib, ozor bermaydi!

Mehribon oyijonim, shoʻxliklar qilib, koʻnglingizni ogʻritgan boʻlsam, qaysarligim tufayli oʻksitgan boʻlsam, kechiring meni! Qoʻngʻir sochli singillarim, sizlar ham yaxshi qoling. Har xil qiziqchilik qilib, sizlarni qiqirlatib kuldiradigan, maktabdan qaytayotganingizda shoʻx bolalar urganda tarafingizni oladigan akangiz yoʻq endi. Sogʻinganda, koʻnglingiz oʻksiganda rasmga boqing. Lekin yigʻlamang. U albatta keladi, qahramonliklar koʻrsatib qaytadi. Oʻz oʻqituvchilariga oʻqimasdan turib ham agronom boʻla olishi mumkinligini, artist boʻlib, hammani oʻziga mahliyo qila olishi mumkinligini, koʻrsatib qoʻyadi. Ha, albatta, koʻrsatadi. Koʻksi toʻla orden bilan qaytadi.

Xayr!

Ey, chala qolgan uy vazifalari, sizlarga ham xayr²⁹!

Soʻzlar baʼzan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil maʼnoni, gap tarkibida boshqa soʻzlar bilan bogʻliq holda boshqa bir maʼno anglatishi mumkin. Masalan, *pasaymoq* soʻzi gapdan tashqarida olinganda yerga tomon yaqinlashmoq maʼnosini bildiradi. Gap tarkibida esa *bilimi pasaydi, koʻrish sezgisi pasaydi* kabi boshqa maʼnolarni bildiradi.

²⁹ Xudoyberdi Toʻxtaboyev, “Sariq devni minib”. “Yangi asr avlod”, 2019-yil. 20-b

Bu soʻzlar birdan ortiq leksik maʼno ifodalayotgani uchun koʻp maʼnoli soʻz sanaladi.

Demak, nutqdan tashqarida bir maʼno, nutq tarkibida boshqa soʻzlar bilan bogʻliq holda yana boshqa maʼno ifodalovchi soʻzlar koʻp maʼnoli soʻzlar deyiladi.

Koʻp maʼnolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday soʻz, avvalo biror narsa yoki hodisani atash maʼnosi tufayli paydo boʻladi, yaʼni bir maʼnonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu soʻz taraqqiyoti maʼno tufayli koʻp maʼnoli soʻzga aylanishi mumkin. Koʻp maʼnoli soʻzlarda 2 xil maʼno farqlanadi: 1) *bosh (asl, oʻz) maʼno*; 2) *yasama (koʻchma) maʼno*. *Bosh maʼno soʻzning nutqdan tashqarida ifodalagan maʼnosi boʻlib, u boshqa maʼnolarning kelib chiqishiga asos boladi. Yasama maʼno bosh maʼnoning taraqqiyoti bilan yuzaga keladi. Masalan, ogʻiz soʻzining bosh maʼnosi insonning tana aʼzosi, gʻorning ogʻzi, qopning ogʻzi yasama maʼno. Soʻzning yasama maʼnosi gapdagi boshqa soʻzlar bilan bogʻliq holda anglashiladi.*

Maʼno taraqqiyoti qonunlariga maʼno koʻchishi, maʼno kengayishi, maʼno torayishi hodisalari kiradi. Maʼlumki, 60-70-yillar oʻzbek bolalar sheʼriyatida tarbiyaviylik ruhidagi anʼanaviy sheʼrlar katta oʻrin tutadi. Tursunboy Adashboyev ijodining dastlabki bosqichida, uning ilk sheʼrlarida orasida ham bunday sheʼrlar ancha-muncha uchraydi.

Jumladan, “Ozoda” sheʼrida ismi ham Ozoda, oʻzi ham ozoda qizcha oʻrnak boʻlarli ijobiy qahramon sifatida qalamga olinadi:

Qoʻshnim qizi **Ozoda**³⁰

Oʻqiydi ikkinchida.

U sinfda aʼlochi

Abjir, yoqimtoy juda.

Oʻqishdan kelgan mahal

Oyisiga qarashar,

Hovlini supurishi

³⁰ Rahmatulla Barakayev, Baxshillo ashurov “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” Toshkent “Akademnashr” – 2017

Unga biram yarashar.

Ukasini o‘ynatar,

Chehrasi doim ochiq.

Kim qo‘l yuvsa, suv quyay,

Qo‘lida oppoq sochiq.

Shuning uchun barchaga,

U rosa yoqib qolgan.

Ozoda bo‘lgani-chun

Ozoda deb nom olgan³¹

Bu she’rda, bir qarashda, hamma narsa joyida: qofiyalar asosan to‘q va to‘liq, vazn o‘ynoqi, ijobiy qahramon barcha jihatdan o‘rnak bo‘larli – a’lochi, abjir, yoqimtoy, o‘qishdan kelgach oyisiga qarashadi, ukasini o‘ynatadi, kim qo‘l yuvsa suv quyib, bir qo‘lida oppoq sochiq tutib turadi, shuning uchun u barchaga yoqib qolgan, ozoda qiz bo‘lgani uchun Ozoda deb nom olgan. Bolalar adabiyoti tilining leksik-semantik xususiyatlari ko‘p ma’noli so‘zlardan unumli foydalangan.

Biroq hamma narsa joyidagiday tuyiladigan shu she’r, aslida, an’anaviy bayonchilik, qofiyabozlik mahsuli bo‘lgan o‘rtamiyona she’r, unda shira yo‘q. Buni shoirning o‘zi ham sezgan bo‘lsa kerak, bu she’rni keyingi birorta to‘plamiga ham kiritmagan.

Bizga ma’lumki, adabiyotshunos M.Qo‘shjonov Xudoyberdi To‘xtaboyev to‘g‘risida, hajviy asarlari, aytish mumkin bizning adabiyotshunosligimizda hajviy janri to‘g‘risida, uning imkoniyati va mushkullari haqida birinchi bo‘lib muhim va asosli fikrni aytdi: “Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘z asarlari uchun respublika bo‘ylab, har xil sohadan material tanlab, tanlangan materiallar ustida qunt bilan ishlar va felyetondan felyetonga o‘z mahoratini oshirib borar edi”. Gap shundaki, Xudoyberdi To‘xtaboyev “Sariq devni minib” asari orqali el mehriga tushdi. Ayniqsa, uning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi” asarlari yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. Xuddi tanganing ikki tomonini ajratib bo‘lmagandek, badiiy

³¹ Адашбоев Т. Арслонбоб шаршараси. – Тошкент: Ёш гвардия, 1969. – Б. 14 (Кейинги ўринларда тўпلام номи ва саҳифаси қавсда кўрсатилади).

adabiyot tilini yoki badiiy asarning o'zini alohida bo'laklarga ajratib qarash o'zini oqlamaydi. Agar tilshunoslik bilan adabiyotshunoslik filologiya fanining ikki asosiy sohasi bo'lsa, badiiy til shu ikkala sohaga ham ozuqa beradigan, ularni tubdan birlashtirib turadigan umumiy ildizdir.³² Lekin shunday bo'lsa-da, adabiyotshunoslik stilistikasi va tilshunoslik stilistikasining tadqiqot doirasida kuzatiladi. Badiiy asar tilining lingvistik tahlilida ham yozuvchining muayyan til birliklaridan foydalanib, qanday ma'noni yuzaga chiqarishi o'z-o'zidan e'tiborga olinadi. Faqat bunda o'sha til elementlarining kelib chiqish faktiga chuqurroq yondashiladi. Shuning uchun biz yozuvchi uslubini yuzaga chiqaruvchi omillar xususidagi masalaga lingvistik aspektda yondashishni o'rinli deb topdik. Shu o'rinda o'zni bilan adabiy tahlilga ham murojaat qilinadi. O'zbek adabiy tilining rivojlanishi, umummilliy adabiy til darajasiga ko'tarilishida badiiy adabiyotning o'zni beqiyosdir.

Shunday ekan, bugungi davr adabiyotiga o'z hissasini qo'shayotgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarining o'ziga xos uslubiy jihatlari o'rganishga ahd qildik. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida juft, takroriy va qo'shma so'zlar qo'llanilgan. Ayniqsa, juft va takroriy so'zlar soni behisob. Farg'ona shevasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu juft va takroriy so'zlarning nutqda ko'p ishlatilishidir deb o'ylaymiz. Haqiqatan, adib asarlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bitta gapning o'zida 3 ta hatto 4 tagacha juft va takroriy so'zlar ishlatilgan. Juft so'zlar ma'nosiga ko'ra sinonim, antonim sifatida kelsa, grammatik xususiyati bo'yicha ot, son, sifat, olmosh, ravish kabi so'z turkumiga xos so'zlardan unumli foydalangan.

Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida qo'shma so'zlarning qo'llanishi ham o'ziga xos uslubdan foydalanadi. U Andijon, Farg'ona shevalaridan so'zlashuv uslubiga doir, iste'mol doirasi keng bo'lmagan so'zlardan unumli foydalanadi. Bu esa adib asarlarining badiiy qiymatini yanada oshiradi. Masalan: *savacho'p, moshbirinch so'zlari Andijon va Farg'ona viloyati tumanlarida ishlatiladi.*

³² П.Кодиров. Халк тили ва реалистик проза.Т.,Фан, 1973. 4 б.

Sholipoya, sochpopuk soʻzlari esa Fargʻona vodiysi dialektlarida bugungi kunda ham keng isteʼmolda. Xudoyberdi Toʻxtaboyev asarlarida bundan yaxshi foydalanadi. Quyida berilgan gaplarda koʻp maʼnoli soʻzlar mavjud. Berilgan gaplarning tahliliga eʼtibor qilamiz:

1. **Tollarning koʻm-koʻk sochlari** (sochpopuklari) qizlarning mayda oʻrilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Bu gapda sochpopuklari soʻzi koʻp maʼnoli soʻz.

2. Qogʻozlarni oʻqib boʻlganidan keyin advokatning **choʻziq yuzlariga** bir kulgi yoyildi, uning moshbirinch moʻylovlarini ikki tomonga kirib borgan bu kulishida chinakam otaning boladan kulganiga oʻxshagan bir narsa bor edi. Bu gapda **choʻziq yuz** – koʻp maʼnoli.

3. Daraxtga chiqib, joylashibroq oʻtirib oldim. **Olakoʻz** oyogʻini silkita-silkita tushuntira ketdi. Bu gapda **Olakoʻz** – qoʻshma soʻz, qoʻshma ot, (laqab) maʼnosida kelgan.

Oʻzbek tili uslubiy vositalarga boy til hisoblanadi. Unda poetik sintaksis vositalari keng qoʻllanilib, ular nutqning taʼsirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Uslubiy vositalar nutqning taʼsirchanligini oshirishda, mazmundorligini taʼminlashda qoʻshimcha biror vazifani bajaruvchi til elementlaridir.

Uslubiy vositalar bajarib kelgan vazifa mohiyati nutqda namoyon boʻladi. Bunday til vositalari, ayniqsa, badiiy nutq uslubida keng qoʻllanilib, tilning boy imkoniyatlarini koʻrsatib berishga xizmat qiladi va uning estetik funksiyasini oshirishga katta yordam beradi. Shu sababli uslubiy vositalar badiiy tasvir vositalari deb ham yuritiladi, baʼzi adabiyotlarda poetik figuralar nomi bilan ham ataladi. Xudoyberdi Toʻxtaboyev asarlarining tili gʻoyat jozibador, gʻoyat chiroyli, gʻoyat yoqimli tildir. Adibning hikoyalari, romanlari va hajviy asarlarini oʻqir ekanmiz, ular bizni oʻziga rom etadi, hayajonlantiradi, badiiy zavq beradi. Buning asosiy sababi adibning oʻz asarlarida turli uslubiy vositalardan oʻrinli va mohirona foydalana olganligidadir.

Soʻzlovchi oʻz hissiyotlarini, emotsiyasini odatdagi tartibga sigʻdira olmagan, odatdagi tuzilish uning sezgi va hissiyotlarini ifoda etish uchun kamday tuyulgan

o‘rinlarda miqdor oshiriladi, natijada takror yuzaga keladi. Takror nutqda yuqori emotsionallikni, me‘yordan ortiq his-tuyg‘uni ifodalashga xizmat qiladi. Nutq birliklarining takrorlanishi, so‘z va uning grammatik qismlarini takror qo‘llanishi, sintaktik butunliklarning qayta aynan qo‘llanishi bunga misol bo‘la oladi. Bunda shunday xulosa kelib chiqadiki, tilda ko‘p ma‘noli so‘zlar ma‘lum sistemani tashkil etadi.

Badiiy matndagi personajlarni nomlashning turli asoslari mavjud. Ular atobiografik tarixiy –madaniy, majoziy va hokazo bo‘lishi mumkin, lekin deyarli har doim muallif personaj nomiga o‘ziga xos ma‘no yuklashga harakat qilishi tabiiydir. Muallif tomonidan qo‘yilgan nomlarning asosiy vazifasi haqida so‘z borar ekan, lingvistik tahlil orqali ismlarning semantik va ramziy ma‘nolarini o‘rganish talab etiladi. Yozuvchining “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi” romanlarida antroponimlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. *Real tarixiy shaxs nomlari – Nikolay poshsho, Lenin, Stalin va hokazo.*

2. *Real – noekspressiv ism-shariflar – Oyshaxon, Sirojiddin, Orif, Hoshimjon, Mirobiddinxo‘ja, Soraxon va hokazo.*

3. *Metonimik ma‘no ifodalovchi nomlar – Ketmon , Oqpodsho, Ideologiya, Adabiyot, Fizika, Kimyo Geografiya va hokazo.*

4. *Sinekdoxa asosida ma‘no tashuvchi nomlar – Olako‘z, Danak qori, Bodom qori, Yong‘oq qori, Uzunquloq pirim va hokazo.*

Keltirilgan nomlar Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlaridagi nomlarning ayrimlarigina xolos. Bu nomlarning barchasini o‘ziga xos ma‘nolari bo‘lib adib buni ajoyib tarzda tasvirlaydi. Masalan, *Soy bo‘yida turadigan qori pochcha juda-juda ham pakana, semirib dum-dumaloq bo‘lib qolgan. Uzoqdan qarasangiz, xuddi Dononing yelim qo‘g‘irchog‘iga o‘xshab ko‘rinadi. Odamlar uni Danak qori deb atashadi. Ko‘rinadiki, bu gapda Danak qorining bir qancha semalari mavjud. Uning implitsit³³ (yashirin) ma‘nosi har bir sohadagi pishiqligidir. Keltirilgan sinekdoxa asosida ma‘no tashuvchi nomlarning nomlanish asoslari mavjud.³⁴*

³³ Implitsit- yashirin O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2-jild. “O‘zbekiston nashriyoti” Toshkent-2020.

³⁴ Xudoyberdi To‘xtaboevning so‘z qo‘llash mahorati. //Scientific Journal Impact Factor -2021y. // Gulnoza Teshaboyeva. Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi. Andijon davlat universiteti.

2.4 Bolalar adabiyotida frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari

Ma'lumki, faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik va psixologik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi.

Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar yosh kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga turli munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona diyorumizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqiradi.

Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi, ilm-fanga muhabbatini oshiradi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg'ularini o'stiradi. Ta'kidlab o'tish kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim, xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Xudoyberdi To'xtaboyev "Quyonglar saltanati" romani qahramoni Egamberdi nutqi orqali milliy o'yinlar bilan bir qatorda, bolalar tomonidan o'ylab topilgan o'yinlar ham keltirilgan: – *Xonkeldi qishlog'ida hech qanday tartibga bo'ysunmaydigan, hech qanday qonunga rioya qilmaydigan, mushtlashish, eshakmindi, bov ustiga bov, o'n akki soat to'xtamay to'p tepish, dashtga, ho'v anavi tog' yon bag'ridagi kenglikka chiqib olib velosipedning qosqoni singuncha*

*poyga uyushtirish singari yovvoyi o‘yinlar avjiga chiqqan*³⁵. Ko‘rinyaptiki, bolalar o‘yin faoliyati jarayonidagi muloqot vaziyatida o‘z shaxsiy fazilatlarini va xarakter-xususiyatlarini nutqlariga mos ravishda aks ettiryaptilar. Shuningdek, o‘yin jarayonida bolalarning atrof-muhitga nisbatan tasavvurlari ortib, voqelikka munosabat bildira olayotganliklari ham yaqqol namoyondir.

Shuningdek, ishda asardagi ko‘proq frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

Xudoyberdi To‘xtaboyev qahramonlari – bolalarni ijtimoiy muloqotdan qochishga urinadigan qahramonlar sifatida emas, balki muomalaga tez kirisha oladigan XXI asr avlodi sifatida shakllantirishga e‘tibor qaratadi.

“Qaylardasan, bolaligim” asarining qahramoni Rashid shu qadar so‘zga chechanki, leksik-uslubiy vositalardan shunday mahorat bilan foydalanadiki, uning nutqida frazemalarning mazmunini saqlagan holda strukturasi o‘zgartirib qo‘llash ko‘zga tashlanadi: – *O‘zing ham idish-tovoqlarni ertalabgacha yuvib qo‘ymasang, mehribon oyijoning teringni shilib badaningga tuz sepadi*³⁶...

Ushbu frazema “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da terisiga somon tiqmoq, ya‘ni “juda qattiq jazolamoq”³⁷ “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da terisiga (yoki terisini shilib) somon tiqmoq, ya‘ni “nihoyatda qattiq jazolamoq”³⁸ ma‘nolarida qo‘llangan. Biroq qahramon bola nutqida frazemaning emotsional kuchi shu darajada oshirilganki, terisini shilib, somon emas, balki tuz sepish natijasida qattiq jazolash mumkinligini keltirib o‘tadi. Bu frazemani qo‘llash orqali Xudoyberdi To‘xtaboyev bolaning xatti-harakatlari, xarakter-xususiyatlarini ko‘rsatish bilan bir qatorda, uning nutqi orqali bola ruhiyatini ochishga harakat qilgan.

Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalar nutqida ayrim okkazional frazemalarni ham mahorat bilan qo‘llaydiki, ular vositasida uning ona tili imkoniyatlaridan

³⁵ Xudoyberdi To‘xtaboyev “Quyvonlar saltanati” romani . 9-bet

³⁶ Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Qaylardasan, bolaligim” asari. 97-bet.

³⁷ O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da terisiga somon tiqmoq, ya‘ni “juda qattiq jazolamoq” 36-b.

³⁸ “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da terisiga (yoki terisini shilib) somon tiqmoq, ya‘ni “nihoyatda qattiq jazolamoq”(37-b)

oziqlanganligi hamda tilning boyishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shganligini isbotlaydi.

Masalan, *gap tekkizmoq* frazemasini olib ko‘raylik. Bu frazema o‘zbek tilining frazeologik lug‘atlaridan o‘rin olgan bo‘lsa-da, biroq adib uni hodisaga salbiy munosabatini ifodalovchi leksik-uslubiy vosita sifatida qo‘llaydi: – *Qani mashinaga chiqinglar, lekin maktabimizga gap tegadigan ish qilmanglar.*\\ – *Gap tekkizmaymiz*³⁹! “*Gap tegizmoq*” frazemasini matnda ham kattalar, ham bolalar nutqida kuzatilgan. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlaridagi bolalar nutqida qo‘llanilgan noverbal vositalar oddiy nutqda uchraydigan noverbal vositalardan farq qiladi. Ularda kommunikantlarning jinsi, ijtimoiy mavqeyi, ayniqsa, yoshi jihatidan yetakchilik qiladi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida qo‘l va barmoq harakatlari bilan yuzaga keluvchi noverbal vositalar qo‘llanilgan. “Telebola” hikoyasining qahramonlari *Omonboy va Davronboylar ham bir umrga chin do‘st bo‘lib qolish uchun ahd qilishayotganlarida jimjiloq barmoqlarini bir-birlarinikidan o‘tkazib o‘rtoqlik sulhi tuzishadi. Barmoqlarni bu tarzda o‘tkazish o‘zbek millatiga xos bo‘lgan milliy mentalitetni ko‘rsatish bilan birga kommunikantlarning bir-birlariga nisbatan bir umrlik ishonch, hurmat mazmunini anglatadi: – Qirq yilga o‘rtoq bo‘lamiz deb, jimjiloqlarini birlashtirib olishgan ekan*⁴⁰.

Matndan anglashilyaptiki, bolalar nutqidagi aloqa-aralashuv jarayonida barmoqlar ham ma’lumot tashuvchi vosita sifatida faol qo‘llanilar ekan. Xudoyberdi To‘xtaboyevning ertaklar turkumidan olingan “Asrab olingan qiz” ertagining boshlanmasida ham morfologik parallelizmning go‘zal namunasiga guvoh bo‘lamiz: – *Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda bir kishi bo‘lgan ekan. Uning atigi bittagina o‘g‘li bor ekan. U farzandi uchun hamma narsani muhayyo qilar ekan*⁴¹ ...

Quyidagi o‘rinda ijodkor etmoq to‘liqsiz fe’lining o‘tgan zamon shakli takrori keltirish orqali bola nutqiga o‘ziga xos ohangdorlik, musiqiylik, mayinlik

³⁹Xudoyberdi To‘xtaboyev. “Quyionlar saltanati” asari 7-b.

⁴⁰ Xudoyberdi To‘xtaboyev. “Telebola” hikoyasi 41-bet//

⁴¹ Xudoyberdi To‘xtaboyev. “Asrab olingan qiz”. 197-bet.

hamda fe'lining mazkur shakli vositasida doimiylik belgisi aks etgan barqaror butunlikni namoyon etmoqda.

Xulosa. Mustaqillik davri bolalar adabiyotining uslubiy-tasviriy vositalar bolalar nutqini individuallashtirish, tipiklashtirish, bola shaxsini gavdalantirish, psixologiyasini ochib berish vaziyatning aniq tasvirini bola tilidan obrazli ifodalashga xizmat qilgan. Shunisi ma'lumki, badiiy adabiyot doimo o'sib-rivojlanishda, taraqqiyotdadir. Har bir haqiqiy iste'dodli ijodkor o'zining yangi so'zi, yangicha fikrlashi, yangicha talqini bilan uni muayyan ma'noda boyitadi.

Bu frazemalarni qo'llash orqali yozuvchi bolaning xatti-harakatlari, xarakter-xususiyatlarini ko'rsatish bilan bir qatorda, uning nutqi orqali bola ruhiyatini ochishga harakat qilgan. bolalar nutqida ayrim okkazional frazemalarni ham mahorat bilan qo'llaganki,, ular vositasida uning ona tili imkoniyatlaridan oziqlanganligi hamda tilning boyishiga o'zining munosib hissasini qo'shganligini isbotlaydi.

Ijodkor so'zning leksik ma'nosi bilan bir qatorda uning uslubiy bo'yog'ini yaxshi bilish zarur. So'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish har qanay bola nutqini aniq va ta'sirli, jozibali, bo'lishini ta'minlaydi.

III BOB. O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI TILNING FUNSIONAL- USLUBIY IMKONIYATLARI

3.1. Bolalar adabiyoti tilida o‘xshatishlarning poyetik xususiyatlari

Tilning tasviriy vositasi bo‘lgan o‘xshatish badiiy asarda juda muhim o‘rin tutadi. O‘xshatish badiiy asarning ifodaliligini, ta’sirchanligini oshirish orqali kitobxonga estetik ta’sir etishini kuchaytiruvchi tasviriy vositadir.

Yozuvchi asarda o‘xshatishlardan maqsadga muvofiq foydalansagina o‘xshatish asarning bezagi bo‘la oladi. O‘xshatish shunday tasviriy vositaki, u qo‘llanilmaydigan matnni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Badiiy asarda aytish mumkinki, har uch gapning biri o‘xshatishlar asosida shakllanadi. Yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboyevning **“Sariq devni minib”** asarida ham tasviriy vositaning bu turiga alohida e’tibor qaratilgan.

Masalan: bunday qarasam, chindan ham qorni naq to‘ntarilgan tandırdek bo‘lib ketibdi. Betlari kichrayib kuygan kulchadek, oyoqlari ham inggichka tortib, xoh ko‘ring, xoh ko‘rmang xuddi o‘qlog‘dek bo‘lib qolibdi.

Birgina ushbu gapdagidek grammatik vositasi uchta o‘xshatishga asos bo‘lgan, ya’ni ***qorni to‘ntarilgan tandırdek, betlari kuygan kulchadek, oyoqlari o‘qlog‘dek*** o‘xshatishlari mavjud. Bu holat ushbu tasviriy vositaning badiiy asarlarda ko‘p qo‘llanishidan dalolat beradi. O‘xshatishning nutqdagi vazifasi uning xarakteriga bog‘liq, shuning uchun oddiy va badiiy o‘xshatishlarning ta’sirchanlik doirasi bir xil emas.

Masalan: ***toshday qattiq, xo‘rozday urushqoq, qo‘yday yuvosh*** kabi o‘xshatishlar nutqimizda ko‘p uchraydi. Shuning uchun ularning ta’sirchanlik kuchi sezilmaydi. Boshqacha aytganda, bu o‘xshatishlar oddiy ifoda vositasi bo‘lib qoladi.

Badiiy asarlarda uchraydigan o‘xshatishlar oddiy ifoda vositasi bo‘lishi bilan birgalikda badiiylikni ham uyushtirish vazifasini bajaradi. Chunki badiiy asar o‘xshatishlari badiiylik va emosional – ekspressivlik xususiyatiga ega bo‘ladi.

Masalan: *mashina qushday uchib boryapti—yu, men bo‘lsam negadir nuqul sariq dev haqida o‘ylayman. Bu gapda mashinaning yurishi, qushning parvoziga qiyoslangan. Bu o‘xshatishda o‘xshatiluvchi ob‘yekt mashina, o‘xshovchi obraz qush, o‘xshatma belgi tezlik. Shu belgining boshqa predmetga ko‘chirish orqali ta‘sirchanlik ta‘minlangan.*

Badiiy o‘xshatishlar yozuvchining ichki his–tuyg‘usi orqali yuzaga keladi. Masalan: *hoy bola, horma! Dedim, g‘o‘zani ichidan o‘t yulib yotgan bolaga, ishingni qil dedi—boshni ko‘tarmay, shunday deb notanish bola boshini ko‘tardi—yu, uyalganidan sholg‘omday qizardi.*

Bu gapda *bolani yuzi sholg‘omga qiyoslangan*, tashqi tomondan qaraganda, ***odam bilan sholg‘om*** o‘rtasida o‘xshashlik yo‘q, lekin odamning qizarishi bilan sholg‘omning qizilligi o‘rtasida o‘xshashlik bor, ya‘ni bolaning qizarishi sholg‘omning qizilligiga obrazli qiyoslangan. Bu o‘xshatishlar avvaldan ma‘lum bo‘lsa—da ifodaga ega, chunki bu o‘xshatishlar uchun asos bo‘lgan predmetlar orasida aniq belgi mavjud emas.

O‘xshatishlar obrazni gavdalandirgani uchun kishining his–tuyg‘ularini qo‘zg‘atadi. Masalan: *“stadion hamon buloqdek qaynab, bo‘ronda qolgan dengizdek to‘lqinlanardi”*. Bu gapda *stadion buloqqa va dengizga o‘xshatilgan o‘xshatish bo‘lib, ikkita o‘xshovchi obraz asasida shakllangan, buloq va dengiz, bu o‘xshatish uchun asosiy belgi mavjud emas, ya‘ni stadion buloq va dengiz, o‘rtasida o‘xshashlik yo‘q, biroq o‘yingohga keladigan ming-minglab tomoshabinlarni ko‘pligi, buloq va dengizga o‘xshatish uchun asos bo‘lgan.*

Yozuvchining asarda so‘zlardan foydalanish sa‘natini xuddi Musavvirning bo‘yoqdan foydalanishiga qiyoslash mumkin. Musavvir sa‘nat asarini yaratishda bo‘yoqni o‘z o‘rnida ishlatishi tasvirni quyushtiradi uning ta‘sirchan va jozibali bo‘lishini ta‘minlaydi. Ijodkorning o‘xshatishlarni qo‘llashida ham ana shu holatni kuzatish mumkin. O‘xshatishlarning hammasi sezgilar va tasavvurlar orqali yuzaga keladi.

Masalan: *Bodom qori pochcham qaltiradi—yu, ammo maktabimiz hovlisidagi haykaldek qotib qolgan. Bu o‘xshatishda odam, haykalga o‘xshatilgan, ya‘ni*

Bodom qorini boshiga to'satdan kelgan xavf xatardan chorasiz bo'lib qolishi, qotib turgan haykalga o'xshatilgan. Ta'kidlash joiski, o'xshatishlar narsalar o'rtasidagi umumiylikka ega bo'lgan vositadir, chunki har bir narsa o'xshatilayotganda ma'lum bir voqea-hodisa yoki biror tushunchani qiyoslangan holda o'rganishni talab etadi.

Badiiy asarlarda qahramon va persanajlarning ichki va tashqi dunyosini va unga mos muhim belgilarni kitobxonga yetkazish maqsadida keng foydalaniladi. Masalan: Yong'oq qori pochcham zixna odam, uning qalbi xuddi qora bulutga o'xshaydi.

Bu gapda *qalb qora bulutga o'xshatilgan*. Qahramonning ichki dunyosini ochish maqsadida bu o'xshatish yuzaga kelgan, ya'ni *Yong'oq qorini qanchalik razil inson ekanligi, uning rahmsizligi, hasadgo'yiligi qora bulutga o'xshatilishi orqali ochib berilgan. Ko'rinadiki, o'xshatish vositasidan faqat tasviriy vosita sifatida foydalanib qolmasdan, undan qahramon xarakterini ochishda, ichki dunyosini namoyon qilishda ham foydalanish maqsadga muvofiqdir*⁴².

Bugungi kunda bolalarga qaratilayotgan e'tibor, Yurtboshimiz tomonidan bolalarga oid chiqarilayotgan qator qonunlar va qarorlar, ta'lim sohasini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor turli soha vakillari shuningdek tilshunoslik sohasi vakillarini ham bu mavzuda ishlashga va rivojlanishiga hissa qo'shishga undamoqda. Bola nutqi uning rivojlanish masalalari psixolog, pedagogik logoped hamda tilshunoslarning doimo diqqat markazida bo'lgan. Ruxshunoslar tomonidan bolalar nutqining psixologik jihatlari o'rganilgan bo'lsa, XX asrning 40-yillarig kelib fonologik xususiyatlari tadqiq etila boshlandi. A.M.Shaxnarovich ta'kidlaganidek, "bola nutqi lingivst uchun o'ziga xos sinov maydoni bo'lib , bu yerda mavjud nazariyalar va maxsus yaratilgan nutq ontogenezi konsepsiyalari sinovdan o'tadi"⁴³. Shu bois tilshunoslikda hozirga qadar yaratilgan tadqiqotlarda bolalar nutqiy faoliyati , ularga ta'sir etuvchi omillar va ularning mexanizmlari tadqiq qilingan. "Bolaning o'zini tutishida yuzaga keluvchi murakkab boshqaruv

⁴² "Sariq devni minib"asarida o'xshatish". Umurqulov Zafar (talaba) maqola. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976

⁴³ "Sariq devni minib"asarida o'xshatish. Umurqulov Zafar (talaba) maqola. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976

masalalarida nutq faoliyati asos bo‘ladi”. Bolaning nutqiy faoliyati badiiy matnda yaqqol yuzaga chiqadi, kattalar kabi bolalar nutqiy saviyasi fikrlash ko‘lami va ruhiy dunyosini nomoyon etishning eng maqbul yo‘li badiiy matnda ular nutqini xoslashtirish individuallashtirishdir. Shuning uchun maxoratli yozuvchilarning qaxramonlari nutqi bir-biridan farqli va betakror tarzda shakllantirilgan bo‘ladi.

Badiiy matnda bolalar nutqning uslubiy jihatlari tadqiq etilganda fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratish zarurligi ko‘zga tashlanadi. Badiiy matnda so‘zning turli o‘rnida unli yoki undosh tovushlarni birdan ortiq yozish, undoshlarni qavatlash, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmaslik, tovushlarni orttirib qo‘llash yoki tovushlarni tushurib qoldirish natijasida emotsional - ekspressivlik yuzaga chiqadi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlaridagi bolalar nutqida qo‘llanilgan fenografik vositalar tekshirilganda ular nutqida undosh tovushlarning motivlanishi kuzatilgan. Shu o‘rinda aytish joyizki, *maktabgacha yoshdagi bolalarning ko‘pchiligida asosan undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmaslik holati kuzatiladi. Bolalar ko‘p vaziyatlarda shovqinli, titroq, sonor undoshlarni talaffuz qilishda qiynalishadi. Ana shunday tovushlardan sanalgan r hamda l tovushlarini talaffuz qilish jarayonida ayrim xollarda bolalar nutqida r-l yoki y nuqsonlari ko‘zga tashlanadi, masalan: ro‘mol-lo‘mol , lab-yab tarzida.* Yuqoridagi fikr va misollarda bilishimiz mumkinki badiiy matnlarda bola nutqni sof holda olib kirish , albatta matn yoki asarning tabiiy va ta’sirchan chiqishi uchun xizmat qiladi.

Qobiljon Shermatovning “O‘tkinjonning o‘nta o‘rdak ukasi” qissasi qahramoni Hotamjonning nutqi ham asarning ta’sirchan tabiiy chiqishiga xizmat qiladi. Masalan *O‘tchir ata yuy betintatam o‘ynemiz. “Ayni mana shu gapda Hatamjon k-t , r-y tarzida talaffuz qilishi asar badiiyligini oshirgan. Ukam “Hopi” dedi-yu , “Biy, itti , ut” degancha sanashni boshlab yubordi. Yuqorida keltirilgan misolimizda ham bog‘cha yoshidagi Hotamjonning undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmaslik holati kuzatiladi. r -y k - t ch – t Xuddi yuqoridagi misollar kabi. Balki Hotam ukam mensiz uxlab kechqurunlari Ata ,ata!” deb yig‘lab chiqqandir, gapida ham biz asar qahramonining yosh bola ekanidan darak berib*

turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida qoʻllangan qisqa takrorlar konnotatsiya ifodasi uchun xizmat qiladi. Ushbu jarayonda soʻz tarkibida fonetik oʻzgarish ham yuz beradi. Bunda soʻzning birinchi boʻgʻini uni keying boʻgʻin bilan bogʻlashga koʻmak beruvchi p,s,m tovushlaridan mosi bilan qoʻllanib soʻz oldidan takrorlanadi⁴⁴.

Masalan oʻrganilayotgan asarda keltirilgan misolimizda ham soʻz qisqa boʻgʻinga ajralishi hodisasi koʻzga tashlanadi, “Obbo, endi joʻjaga aylanib qoldimmi endi hakkalardan qochib yurishim qoluvdi” deb bezillab tursam, birdan yap-yapaloq burnimni koʻrib qoldim. Hammasi ayon, demak oʻrdak tuxumida turibman. Keltirilgan misoldagi yap-yapaloq jumlasida maʼnoni kuchaytirish holati kuzatiladi, hamma nutq taʼsirchanligini oshiradi. Undoshlar kabi unli tovushlarni ham bolalar nutq jarayonida choʻzib talaffuz qilinishi nutq taʼsirchanligini oshirishga xizmat qiladi;

Masalan : “ukalarim “Ovqat beer”!” deb chiyillashar, uning ustiga kun ham rossa qizdirardi misolida e unlisini choʻzish orqali ukalarini chidab boʻlmas darajada och qolganligiga ishora qilib, nutq taʼsirchanligi emotsionalligiga erishilgan. Xulosa qilib aytganda badiiy matnlarda bolalar nutqining oʻzgarishsiz keltirilishi u fonetik boʻladimi, leksik, morfologik boʻladimi matnning tabiiylik va taʼsirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Boalalar adabiyoti tilida oʻxshatishlarning poyetik imkoniyatlari. Gʻofur Gʻulomning “Shum bola”qissasida ham koʻplab uchraydigan badiiy tasvir vositalaridan ayrimlarini – oʻxshatishlar orqali, bir nechtasini koʻrishimiz mumkin⁴⁵.

Masalan: “Tepamizda saman otga mingan, moshkichiri soqolli, burni xuddi paxtali toʻnga qadalgan tugmaday ichiga botib ketgan puchuq bir kishi qamchi oʻyatib siyosat qilar edi”;

⁴⁴ “Sariq devni minib” asarida oʻxshatish. Umurqulov Zafar (talaba) maqola. Мукаппаров М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976

⁴⁵ S.Axmedov, R.Qoʻchqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot 6-sinf darslik oʻquv qoʻllanma. Toshkent “Maʼnaviyat”-2005.

“Omon uyqudan chap yonboshi bilan turdi. Qovog‘ini peshayvoni tushib ketgan, to‘g‘ri gapga ham tersayeb javob berar, mechkay kasalga uchragan bolalarday injiq edi ”;

“Haytovur domla ishtonbog‘ini mahkam bog‘lamagani uchun chopish vaqtida oyog‘iga tushib, kishan bo‘lib paypoqdor tovuqday kalavlab qoldi-da, men qochib qutildim”;

“Xotin qozonning qopqog‘ini ochdi-baliqday bo‘lib, oppoq laganda moshkichiri chiqdi, o‘rtaga qo‘ydilar”;

“Sirlangan xumchaga tushgan sichqonday to‘rt tomonga alanglab, o‘zimga bir najot yo‘li qidirar edim”;

“Piyozdog‘ning hidlari dimog‘imga kirib, ishtaha ham namozshomgulning karnayiday ochilib ketgan edi”;

“Qo‘ylar xuddi sutga tushgan sichqonday boshlarini ko‘tarib suzar edilar”;

“It quvgan tulkiday olazarak Omon engashddi”;

“O‘choqdan chiqqan zangori tutun osmonga o‘rlab, tevarak-atrofga ko‘rpaday yoyilar edi”;

“To‘ti patlarining rang – barangligi Oyisha chevarning ish qutisidagi ipaklarday tovlanar edi ”;

“Orqamdan o‘lik quvlab kelayotgandek orqamga qayrilib boqar edim”

“Har ikkovimizning yuragimiz dard tekkan terak yaprog‘iday qaltirab turibdi”.

3.2. Epitetlarning uslubiy imkoniyatlari.

Epithet (yunon tilidan tarjimada - qo'llash, qo'shimcha) - bu tasvirlangan hodisada ma'lum bir kontekst uchun zarur bo'lgan xususiyatni belgilaydigan majoziy ta'rif. Oddiy ta'rifdan ko'ra, epitet badiiy ekspressivlik va obrazlilik bilan ajralib turadi. Epitet yashirin taqqoslashga asoslangan.

Epitetlarga barcha "rangli" ta'riflar kiradi, ular ko'pincha sifatlar bilan ifodalanadi. Tilshunoslikda atributiv birikmalar, badiiy matnlar tahlilida epitetli birikmalar deb ataladigan sintaktik birliklarning hosil qilinishi ma'lum ma'noda ijodiy jarayondir. Ijodkorlar bunda til fondida mavjud bo'lgan tayyor jumladan

foydalanishdan ko‘ra o‘zlarining badiiy-estetik idealiga mos keladigan yangi birikuvlarni yaratishni afzal ko‘radilar.

Ularning lingvopoetik mohiyatini chuqur anglash maqsadida A.Lipgart asarlariga murojaat qilamiz. Olimning ta’kidlashicha, aniqlovchi + aniqlanmish munosabatlari axborot rejasida faqatgina aniqlanmishning aniqlabgina qolmaydi, balki qo‘shimcha ekspressiv planni ham paydo qiladi. Birikmaning yaxlit otlashuvi ham konnotativ mazmun kasb etganligidan ko‘plab atributivli birikmalar tilning ta’sir vazifasini ado etishga xizmat qiladi, o‘ziga lingvopoetik yuk oladi. Bu holatlar birikmalarning funksional-stilistik statusini belgilaydi. Shu sababdan A.Lipgart avval atributiv birikmalarning lingvopoetik ahamiyatini, undan keyin esa lingvopoetik vazifasini tahlil etishni tavsiya etadi.⁴⁶

Shekspir va Spenser sonetlarini qiyosiy o‘rgangan L.S.Karpova ham bu qo‘llanishlarda ikki maqsad: birinchidan, bayonning aniq bo‘lishiga, ikkinchidan, ekspressivlik ko‘zda tutilishini ta’kidlagan.⁴⁷

Zero, stilistik alomatlarga ega bo‘lgan atributiv birikmalar tasviriy xarakterdagi matnlarni nisbatan ta’sirli qiladi, ritorik samara beradigan vositaga aylanadi. Mana shu holatlar Usmon Azim she’riyati poetikasida ham yetakchilik qiladi.

Bu tasviriy vositalarni bir joyga jamlar ekanmiz, R.Yakobson keltirgan filologlarning poeziyada qanday aniqlovchilarni epitet deb qarash mumkin, degan bahsida qatnashgan Vladimir Mayakovskiy kutilmaganda, mening uchun poeziyada «hamma narsa epitet», degan fikrni bayon etganligi haqidagi fakt yodimizga tushdi.⁴⁸

Ularning ayrimlari bir necha martalab takrorlanganligini inobatga olsak, bu birlik qo‘llanish chastotasining yana ham yuqori ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ammo gap bu chastotaning yuqoriligida emas, balki ularning badiiy matn tarkibiga

⁴⁶ Липгарт А.А. Основы лингвопoeтики. – М.: URSS, 2016, -С.20,23.

⁴⁷ Карпова Л.С. Лингвопoeтика повествовательных типов и другие методы лингвопoeтического исследования / Язык. Культура. Коммуникация. Вестник ИГЛУ, 2009, -С.35-36.

⁴⁸ Якобсон Р. Грамматический параллелизм и его русские аспекты / Якобсон Р.Я. Работы по поэтике: Переводы / Сост. и общ. ред. М.И.Гаспарова. -М.: Прогресс, 1987, -С.127

singib ketganligi, kutilmagan birikuvlarda g'oyat obrazli ifodalarning yuzaga kelishida ishtirok etganligidadir.

Usmon Azimning badiiy tafakkur salohiyati shu darajada yuksakligi bois tahlillarni faqatgina rang bildiruvchi sanoqli so'zlar doirasida chegaralashga majbur bo'ldik.

Olamning lingvistik manzarasini anglashda rang bildiruvchi so'zlarning ishtiroki alohida ekanligini ularning badiiy matnlardagi qo'llanishi yaqqol namoyish etib turadi. Biron bir ijodkor yo'qki, tasviriy vositalarning bu turkumiga murojaat qilmagan bo'lsin. Shu sababdan, tadqiqotchilar ranglar olamini his etish va undan badiiy matnlarda foydalanishda lingvokulturologik va antroposentrik yondashuvlarning ahamiyatli ekanligini qayd etadilar.⁴⁹ Ularning Usmon Azim she'rlaridagi semantik-stilistik va poetik ta'sir ko'lami shu qadar kengki, ularni bir tadqiqot doirasida qamrab olishning amalda imkoni yo'q. Shu boisdan, o'zbek tilida ranglar gammasi ifodasida yetakchi bo'lgan asosiy lingvistik birliklarga to'xtalib o'tish mumkin bo'ldi.

Oq. *Oppoq* elementining *qor*, *yuz* singari ayrim so'zlar bilan birikuvi o'zbek tilida turg'unlashgan va differensiasiyalashgan ko'rinadi. Chunki *oq* sifatining oddiy va kuchaytirilgan *oppoq* shakli o'rtasida stilistik farqlar mavjud. Masalan, *So'ng bor qo'lingdan ushlab, / O'paman oppoq qorni. (Saylanma)* gapini *So'ng bor qo'lingdan ushlab, / O'paman oq qorni* tarzida qo'llash stilistik jihatdan maqsadga muvofiq emas. Tabiatan faqat oq rangda bo'lgan qorga oq sifatini taqash bilan tautologiya, ya'ni nutqiy ortiqchalik yuz beradi. U faqat *oppoq qor* ko'rinishida qo'llangandagina kutilgan natijani – belgini kuchaytirish imkonini beradi. Uning *yuz* bilan qo'llanishi ham shunday: *Na nozik kashfiyot bilan yaralmish / Kulguga chayilgan oppoq yuzlaring (Fonus).* *Oq yuz* deyilgan ma'no boshqa tomonga siljib ketishi mumkin. Masalan, *yuzi oqarmoq* – yuzning kuchli salbiy hayajon natijasida yoki betoblik tufayli o'zgarishi kabi. *Yuzi oq* ba'zan *yuzi yorug'* frazeologizmining sinonimi bo'lishi mumkin: *Yuzimni ham oqqa bo'ya, Yuzim doim bo'lgan oq (Saylanma)* singari.

⁴⁹ Прокофьева Л.П. Лингвоцветовая картина мира Александра Блока. http://www.ksu.ru/f10/publications/konf/articles_1...

Oq soʻzi semantikasidagi bu oʻzgarishlarni eʼtibordan qochirmagan Usmon Azim koʻpchilik holatlarda uning metaforik mohiyatini ochishga ahamiyat beradi. Soʻzning *oq yomgʻir, oq olam, oq cholgʻu* birikuvlarida qoʻllanishi buning dalilidir.

Bu kabi qoʻllanishlarning stilistik ottenkalari bir-biridan farqlanadi. Ana shu farqlanishlarning mohiyatiga chuqur kirib borgan Usmon Azim *Oq yomgʻirda bosh yalang, / Raqs tushamiz, oʻynaymiz. (Saylanma), Tevarakda oq edi olam, / Tevarakda yogʻar edi qor. (Saylanma)* kabi misralarda oqning *tozalik, poklik, pokizalik* maʼnolarini aktuallashtiradi. Boshqa bir misralarida u lirik qahramon ruhiyatini ifoda etadi: *Endi qishning qorida qaytgum – / Bevazn oq ruhida paydo (Yurak)* kabi. Oybek, A.Suyunda, M.Ali sheʼriy toʻplamlari matnida bunday qoʻllanishlarning uchramasligi bu birikuvlarning individual xarakteridan dalolat beradi.

Yoki boʻlmasa, haqiqatdan, Anvar Obidjon hamda Xudoyberdi Toʻxtaboyev asarlarida epitetli birikmalarning qoʻllanish koʻlami hayratlanarli darajada keng. Masalan: A. Obidjon “Dahshatli meshpolvon” qissa – dostonida Meshpolvonning Oshiqboladan kulishini koʻring:

Shoʻring qursin, *baxmal chopon,*

Ulgʻayibsan juda nodon.

Oshiq nima, bilmaysanmi?

Oʻzbekmisan, habashmisan?

Bordir yana yongʻoq oʻyin,

Yutsang – ovqat ikki qoʻyin.

Yoz kelganda kirib boqqa,

Oʻtganmisan zoʻldir-soqqa?

Yerga chizib “chizma-chiziq”,

Sopol surish undan qiziq.

Oʻynamagan boʻlsang “Dasta⁵⁰”,

⁵⁰ Dasta – chillak oʻyini. . Anvar Obidjon. “Dahshatli meshpolvon” qissa – doston. Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati// Toshkent -2019.// 21-23 betlar.

Demak, mendan zarbing past-da.
“Hammom pishdi” besh yoshga mos,
O‘n yoshgacha hayinchak os.
Katta bo‘lib qoldik endi,
Bizga bopi – “Eshak mindi”.
Bilmayman deb jahlim qo‘zma,
Axir, mashhur “Quloqcho‘zma⁵¹”-
Kam emasdir ulog‘ingdan,
O‘t chaqnaydi qulog‘ingdan.
Hammasini qiyoslab ko‘r,
“Mo‘ri – mo‘ri” o‘yini zo‘r.
Bordir yana “Bekinmachoq”,
Eng qaltisi – “Urshapaloq⁵²”
Qilar seni ovchi, jangchi:
“Yoppa kurash”, “Sholi yanchi”,
“Pichoq sanchar”, “Sopqon otdi”,
“Kamand chirmash”, “Arqon tortdi”.
Aralashsa agar qizlar,
Kelin-kuyov saylab bizlar,
O‘ynar edik “Xola quchgan”,
Kimki sovchi – qo‘lga tushgan.
Bo‘shang qizni qilar qoqvosh
“Hakalakam” minan “To‘ptosh”.
Ayniqsa til qayrar juda
“Oling, quda-bering, quda”.
O‘ynaganlar “Oq-ko‘k terak⁵³”,

⁵¹ Quloqcho‘zma to‘ylarda shunday o‘yin bo‘lardi: kattalardan birovni ro‘molchaga tanga tugib, bolalarning o‘rtasiga tashlar, ro‘molchani pakkaga eltgan bola tangalarni olardi. Sheriklari yo‘lda tutib olishsa, ro‘molchani tashlamaguncha qulogini cho‘zaverishadi. . Anvar Obidjon. “Dahshatli meshpolvon” qissa – doston. Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati// Toshkent -2019.// 21-23 betlar.

⁵²Urshapaloq yoki mushtum-shapaloq biron bola o‘ng qo‘lida qulog‘ini to‘sib, chap kaftini qo‘ltig‘ia teskari qo‘yib turadi. Orqadagilarning biri uradi, hamma “mana, mana”, deb baqiradi. Dolvoy bola urganini topsa, o‘zining o‘rniga turg‘izadi. Anvar Obidjon. “Dahshatli meshpolvon” qissa – doston. Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati// Toshkent -2019.// 21-23 betlar.

Chopa olar naq pirpirak.
Yetti pushtdan qolgan meros
“Halov, tuya”, “Tojixo‘roz”...
E, bularni kim bilmabdi,
Bu dunyoda tug‘ilmabdi.

Anvar Obidjonning “Dahshatli meshpolvon” asarida turli xil o‘yinlar asosida epitetlarni ko‘rish mumkin. Masalan: Meshpolvon oshiqbolani baxmal chopon deb kulishi hamda “*Dasta*”, “*Eshak mindi*”, “*Hammom pishdi*”, “*Pichoq sanchar*”, “*Sopqon otdi*”, “*Kamand chirmash*”, “*Arqon tortdi*”, “*Xola quchgan*”, “*Oq-ko‘k terak*” “*Halov tuya*”, “*Tojixo‘roz*” o‘yin nomlari ostida epitetlar qo‘llanishini ko‘rishimiz mumkin.

Yoki Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romanida XIV bobi Uzunquloq ota yoki urg‘ochi eshak qissasida ham yuguraverib rosa holdan toygan ekanman, muzdakkina tosh ustiga o‘tirib olib, har narsalar to‘g‘risida o‘ylanib ketdim. O‘ylab –o‘ylab, zerikkanimdan keyin qo‘ltig‘imda turgan qalpoqcham bilan shirin suhbat qurdim.

- Balli senga, qalpoqcham, hammasi sen tufayli bo‘lyapti. Xo‘p desang, uchaskavoy amakiga aytib, senga ham bir mukofot olib bersam?

- Menga mukofot kerakmas, - tilga kirdi qalpoqcham, - hozir o‘rningdan turib, “Bodom”qorining orqasidan yugur.

- Uni qayerdan topaman?

- Uyiga ketayabti, yo‘ldan topasan.

Shartta o‘rnimdan turib, qadrdon qalpoqchamni boshimga kiydim-da, nariroqda ziyoratchilar qozonida sho‘rva pishirayotgan ekan, “*Yong‘oq*” qori pochchamning haqlariga deb go‘shining yarmini oldim-da, yo‘l-yo‘lakay yeb, “*Bodom*”qori amakimning orqasidan yugurdim. Shundan keyin “*Bodom*” hamda “*Danak*”qorilarni chuv tushirishi, Uzunquloq pirining hoklarini boshqa joyga ko‘chirishi va u yerdan kinoteatr qurilishi, qabr ochilganda eshakni suyagi chiqib

⁵³ “Oq terakmi, ko‘k terak” o‘yini Anvar Obidjon. “Dahshatli meshpolvon” qissa – doston. Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati// Toshkent -2019.// 21-23 betlar.

*qolishi, haqiqatni bir yuzi o'ttiz to'rt yoshga kirgan Qobil bobodan eshitishi, so'ng xalq bir yuzi yigirma yeti yildan buyon aldanib kelishi kulguli holat*⁵⁴. Endi ayni haqiqatni eshitmoqchi bo'lib qorilarga so'z berib turganda xayr – ma'zurini nasiya qilib, sekingina juftakni rostlab qolishgan ekan, hech joydan topib bo'lmadi.

Bu yerda “Uzunquloq” pir, “Bodom” qori, “Danak” qori hamda “Yong'oq” qorilar obrazida epitet qo'llangan.

QORA. o'tilda rang bildiruvchi so'zlar orasida *qora* o'zining polisemantik imkoniyati bilan alohida o'rin tutadi.⁵⁵ Xudoyberdi To'xtaboyev qo'llagan *qora* elementining ko'lami ham ana shu ma'nolar doirasida, ba'zan esa undan tashqarida poetik mazmun kasb etgan.

Uslub nuqtai nazardan qo'llanishda *qoraning* kitobiy-badiiy shakli *qaro* ustunlik qiladi. Ammo ularning har biri o'z stilistik statusiga ega – biri ikkinchisining o'rnini bosa olmasligi mumkin. Bu, ayniqsa, *qoraning qoralamoq* shaklida frazeologik birikmalar tarkibida kelganida yaqqol seziladi: *Sherniyoz endigina yigirma yoshga kirdi. Qosh-u ko'zi tundek qop-qora, harakatlari chaqqon bu yigit garchi hamisha kulib tursa. (Qasoskorning oltin boshi) Ko'cha – ko'yda och-u sarson yurgan yetimlar haqqi, boylar eshigida qora yerning kemasidek ishlab, haqqini ololmay yurgan cho'ri-yu qarollar haqqi, hokim-u to'ralar qamchisidan boshi yorilgan alamzadalar haqqi, izzat- nafsi toptalgan yo'qsillar haqqi, haqoratlar, xo'rlashlar, kamsitishlar belini bukkan mazlum-u mazlumlar haqqi boylar dunyosiga o't qo'yamiz! (Qasoskorning oltin boshi).* Shuningdek, *qaroning* o'rnida *qop-qora* variantidan foydalanilganda so'zning ekspressivlik

⁵⁴ X.To'xtaboyevning “Sariq devni minib” romanida XIV bobi Uzunquloq ota yoki urg'ochi eshak qissasida // yangi asr avlodi. Toshkent 2019.184-190-betlar.

⁵⁵ Masalan, uning rang-tusi mavjud ranglarining barчасидан тўқ, қозонқуя, кўмир тусидаги, оқнинг зиди; шу тусга мойил тўқ рангли, қорамтир; ис, қурум босган, қорайган ёки оқланмаган, пардозланмаган; қоронғи, нурсиз, зиёсиз, ёруғнинг зиди; шахмат, шашка каби ўйинларда оққа зид доналар ва шу доналар билан ўйновчи томон; қора ёки қорага мойил нарса; бирор нарсанинг узокдан ёки қоронғидан кўзга ташланувчи акси, ифодаси; мўлжалга олинган ёки олинадиган нарса, нишон, мўлжал; умуман салбий белгини, салбий белгига эгалликни билдирадиган, ёмон; кўчма нотўғри, ёмон, ярамас нарса, иш; баъзи сўзлар билан қўлланиб, улар англатган нарсага хос белги-ҳолатнинг кучли даражасини билдиради; кўчма эск. маълум миқдордаги яхлит сумма маънолари, шунингдек ичи (дили, кўнгли, юраги) қора, юзи қора, қора ер бўлмоқ, қора киймоқ, қора курси, қора меҳнат, қора тортмоқ, қора қилмоқ, қора халқ, қора одам, қора чақам йўқ, қораси ўчмоқ, қорасини кўрсатмоқ, қорасини олмоқ сингари фразеологик бирликлар изоҳи берилган. Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, бешинчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат нашриёти, 2008, -Б.335-337.

surati pasayadi: *Qosh-u ko'zi tunde **qop-qora**, harakatlari chaqqon bu yigit garchi hamisha kulib tursa.* (*Qasoskorning oltin boshi*) kabi.

Daraqiqat, Xudoybrdi To'xtaboyev asarlarida ham so'zning orttirma shakli *qop-qoradan* yuqorida tilga olganimiz tarkibida ushbu so'z qo'llangan misralar tahlili orttirma daraja ko'rsatkichlarining ifodani kuchaytirish imkoniyati doirasida chegaralinib qolmaganligini, balki obrazli ifoda hosil qilishdagi muhim poetik vositalardan biriga aylanganligini ko'rsatadi. Masalan, «**Sog'inishdan o'tdim...**» she'rida: *Sog'inchning gullari! **Qop-qora gullar!** misrasida gulga nisbatan qo'llangan qora metaforik epiteli lirik qahramondagi sog'inch hissi iztiroblarining grotesk va favqulodda original ifodasidir. Shoir sog'inishda qandaydir bir ichki huzurlanish borligi uchun uni gulga qiyoslaydi. Bu sog'inishning samarasi yo'qligi uchun u, o'z navbatida, qoraga qiyoslanadi. Ammo hamma narsa «hechlik»ka aylangach, lirik qahramon afsus chekadi: *Gul eding baribir! / Gul eding, axir!* (*Fonus*). Misradagi *axir* so'zi bu ehtirosni yanada kuchaytiradi. Biz bu birikuvni boshqa ijodkorlar matnida uchratmadik deya ta'kidlab o'tadi S.Umirova⁵⁶.*

Shoir asarlari matnidagi *qora tasodif, qora vujud, qora falak, qora taqdir, qop-qora gulxan, qop-qora jimlik, qop-qora dala* singari metaforik epiteli birikmalar Usmon Azim poetik individualligining eng sara namunalari sifatida uning she'lariga teran falsafiylik, betakror badiiylik bag'ishlaydi: *Suruv tegrasida kezardi sergak, / **qora tasodifning** to'sib yo'lini.* (*Saylanma*). *Nahotki, barglar ham qaytmas dunyoga? / **Qora vujudimda** ruhim – qari qush.* (*Saylanma*). *Ishon, yurak oqdir, **qarodir taqdir,** / Oq-qora bo'yoqlar bizning bog'larda.* (*Saylanma*) kabi.

Garchi nutqimizda *qora yer* qo'llanilib, bunda muayyan obrazlilik mujassam bo'lsa-da, rassom Ro'zi Chori vafotiga bag'ishlab yozilgan «Bo'zlov» marsiyasida u shoirning alohida o'kinch va qayg'usi ramzi, ayni paytda, buyuk rassomning san'at olamidagi yulduz ekanligini ta'kidlovchi, kuchaytiruvchi lingvopoetik vositaga aylanadi: *Ro'zi aka! Og'ajonim, qayga ketding? / Men ham endi bo'ylayotgan joyga ketding, / Oyga emas, **qaro yerga** – loyga ketding – / **Qaro***

⁵⁶ Умирова Светлана Маъмуржонова. Ўзбек шеърятинда лингвистик воситалар воситалар ва поетик индивидуаллик. Самарқанд – 2019 номли мақоласидан олинган

tuproq qa'rida ham yulduz Ro'zi! Parchadagi *oyga emas, loyga* elementlari ham misralar mazmunidagi qayg'u va o'kinichni kuchaytiruvchi tasviriy vositalardir.

Usmon Azim *qaro yer* metaforik epitetiga tez-tez murojaat qilib turadi va bu qo'llanish har safar insonning bu yorug' olamni tark etishi bilan bog'liq jarayonlar qalamga olingan bo'ladi.

Umuman, Usmon Azim she'rlarida *qora* so'zi otlashganda, undan fe'l yasalganda ham, epitetli birikma tarkibida kelganda ham o'zining manfiy ottenkalari bilan aktuallashadi, lirik qahramon ichki olamidagi noxush kayfiyatlar ifodasi sifatida tasviriylik kasb etadi. So'zning ushbu semalar bilan voqelanishi, ayniqsa, uning *oq* va *qora*ning bir mikromatn doirasida antonimik muvozanatda qo'llanishida aniq ma'lum bo'ladi: *Donolar qorani oppoq desalar, / Shoirlar haromni shu pok desalar, / Qo'rqsalar, dushmani o'rtoq desalar – / Chidagin, bolam-a, chidagin, / Dardlaring tanningga joylansin (Saylanma)* parchasida *qora* va *oq* so'zlarining semantik qamrovi keskin kengayib ketadi – olamdagi jamiki yomonlik va yaxshilik semasida birlashadigan barcha tushunchalarni ifodalashni o'z zimmasiga oladi. Ularga bu qadar keng qamrovdagi umumlashtiruvchilik ma'nosini yuklash ham ijodkor badiiy mahoratining noyob namunasidir.

She'r Usmon Azim ijodidagi antiteza – tazod san'atining eng go'zal namunasidir. Usulning qo'llanishida ham o'z, ham ko'chma ma'nolarda kelgan *oq* va *qora* elementlari yetakchilik qiladi hamda matndagi asosiy tayanch so'zlarning poetik muvozanatini o'z atrofida saqlab turadi.

SARIQ. Usmon Azim ranglari tabiatning oddiy aksi emas. Shu bois bu aks ifodasi bo'lgan so'zlarning qo'llanishida deyarli denotativ holatlar kuzatilmaydi. Ularning har biri matn mazmun-mohiyatiga mos tarzda akutallashadi, biri ikkinchisiga o'xshamaydigan konnotativ imkoniyatlarini namoyish etadi.

Bu holat rang bildiruvchi *sariq/sarg'aymoq* so'zlari qo'llanilishida ham kuzatiladi. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da *sariqqa* somon, zarchuva, tilla kabi narsalar tusidagi rang; mala rang, mala; tuxumning oqsil moddasi o'rtasidagi qismi; jigardagi jiddiy salbiy o'zgarishlar tufayli teri, ko'z oqining *sarg'ayishidan* iborat og'ir va yuqumli kasallik nomi, gepatit singari izohlari berilgan.

Shuningdek, uning semantikasidagi o'zgarishlar tufayli *sariq kartochka*, *sariq matbuot*, *sariq palak*, *sariq suv*, *sariq sumalak*, *sariq chaqa/sariq chaqaga arzimaydigan* singari frazeologik birliklar hosil bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. *Sarg'aymoq* ning esa sariq tus olmoq; *ko'chma* zoriqib, toliqib kutmoq, mahtal, intiq bo'lmoq; *ko'chma* qattiq yalinmoq, iltijo qilmoq, iztirob chekmoq kabi izohlari berilgan.⁵⁷

So'zlarning bu ma'nolariga tayanib aytish mumkinki, Usmon Azim she'rlari matni ularning barchasini qamrab olgan. Ammo deyarlik barcha holatlarda ham ularning qo'llanishi obrazlilikka qaratilganligi bilan xarakterli. Masalan, *Iye!.. – bir barg sarg'aydi*. (*Fonus*) misrasida kuz faslining kelganligiga, *Bog'larim sarg'ayib ketmoqda, ayni / Kuzlarim uyg'ondi uyqudan* (*Fonus*) qatorida inson umridagi keksalikning boshlanishiga, *Sarg'ayib dumbul tortdi / Bolg'alining bug'doyi*. (*Saylanma*) hosilning pishganligiga, *Saratonda gullar o'ladi, / Sarg'ayadi egasiz tuzlar*. (*Saylanma*) misrasida kuz faslining kirib kelganligiga ishora qilishi bilan lingvopoetik mazmun kasb etgan.

Usmon Azim asarlarida *sariq*, *sarg'aymoq* so'zlari *barg*, *bog'*, *borliq*, *bug'doy*, *gul*, *dala/tuz*, *dard*, *deraza ko'zi*, *dunyo*, *kuz*, *ko'z*, *qiyog*, *qo'l*, *maysa*, *odam*, *olma*, *rang*, *somon*, *so'z*, *o'rik*, *chehrai zard*, *yaproq* birliklari bilan birgalikda qo'llangan.

Sarg'aymoq ning *gul*, *barg*, *dunyo*, *so'z* singari elementlar bilan birikuvi bilan esa badiiy ifodaning favqulodda ko'rinishlari kashf etilgan va bunda obrazlilikni misradagi boshqa til birliklari ham o'z zimmasiga olgan. Masalan, *Armonning gullari sap-sariq, / Sariqqa to'ldi-ya, bu borliq* (*Saylanma*). Gap tarkibidagi *sariq gul* alohida olinganda obrazlilik uchun xizmat qila olmasligi mumkin.

Ammo gap markazida *armon* turganligi, boshqa birliklar esa uning badiiy sharhiga qaratilganligi inobatga olinganda, *gul*, *sariq* so'zlari o'zining yangi qirralarini ochadi: *armonning gullari* birikuvidagi *armon* odamzod hayotidagi noxush, yoqimsiz, ma'qul bo'lmagan hodisa sifatida qaralar ekan, u bilan birikkan

⁵⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5-жилдлик, учинчи жилд. –Тошкент:ЎзМЕ Давлат нашриёти, 2007, - Б.449-450, 457..

aslida ijobiy ottenkali *gul* ham ijobiy baholanmaydi. Armon ijobiy hodisa bo‘lmagandan keyin uning mevasi, natijasi bo‘lgan *gul* ham yoqimsiz. Ana shunday mazmuni ifoda etayotgan *gul* so‘ziga bog‘langan, uning poetik aniqlovchisi bo‘lgan *sap-sariq* favqulodda original tasviriylilik uchun xizmat qiladi. U *armonning gullaridagi* poetik samaradorlikni bir necha baravarga kuchaytirib yuboradi.

Ikkinchi misradan anglashilgan *olamning sariqqa to‘lib ketishi* nimani anglatadi? Bir-biriga yetisha olmagan, sevgilari xazon bo‘lgan, orzulari armonga aylangan Elbek baxshi va Oytumanning taqdiriga go‘yo butun olam hamdard. Shu ma‘noda bu hamdardlikning olamni sarg‘aygan holda tasavvur etilishi tarzida berilishi lirik qahramon iztiroblarining noyob tasviridir va bu kabi har qanday badiiy tafakkur ko‘lamiga sig‘ishi mumkin bo‘lmagan favqulodda individual tashbehlaridir.

Mantiqiy tafakkur asosiga qurilgan bu qiyoslashlar badiiy tafakkur mantig‘iga ham to‘la mos keladi va Usmon Azimning ko‘pchilik she‘rlarida uning individualligini aks ettiruvchi uslub sifatida davom etadi. Masalan, «Bebaxtlikda bu kuzak baxtli!» she‘ridagi *Dunyo bugun sarg‘aygan chorbog‘* – / *Yov bo‘shliqlar tegarasida (Saylanma)*, misralarida inson va tabiat uyg‘unligi faqat Usmon Azimgagina xos bo‘lgan uslub bilan ifoda etiladi⁵⁸.

3.3. Mustaqillik davri o‘zbek bolalar adabiyoti tilida ko‘chimlar

Xudoyberdi To‘xtaboyev uzoq yillar feletonchi bo‘lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o‘rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo‘layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog‘iga botgan, mol-u dunyoga hirs qo‘ygan shaxslar haqida talay feletonlar yozdi. “Sariq devni minib”, “Sariq devni o‘limi” nomli asarlari ana shu dalillarni umumlashtirish asosida yuzaga kelgan, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

⁵⁸ Umirova Svetlana Ma‘murjonova. O‘zbek she‘riyatida lingvistik vositalar vositalar va poetic individuallik. Samarqand – 2019 nomli maqolasidan olingan

Ma'lumki, hajviy qissalarimiz barmoq bilan sanalar edi. "Kalvak maxsum", "Toshpo'lat tajang", "Tirilgan murda", "Shum bola" dan keyin ancha vaqt bu janrda aytarli asar yaratilmadi. Keying yillarda Abdulla Qodiriy va G'ofur G'ulomning an'analarini Xudoyberdi To'xtaboyev davom ettirib, bu "bo'shliq"ni to'ldirishga harakat qildi.

Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar uchun asar yozayotgan paytda, albatta, o'z o'quvchisini ko'z oldiga keltirib yozadi. "Olti yoshli bolaga aytayotgan gapingiz o'n to'rt yoshli o'smirga aytadigan gapingizdan, albatta, farq qilisi kerak" deb ta'kidlaydi. Yozuvchining bolalar va o'smirlarga atab yozgan asarlarining qiziqarli, o'qimishli, jozibali bo'lishining asosiy sabablaridan biri ham shu.

Shuning uchun ham Xudoyberdi To'xtaboyevning birinchi yumoristik – sarguzasht qissasi, bolalar hayotidan olingan "Sehrlı qalpoqcha" tez orada bolalar hurmatiga sazovor bo'ldi va uni jamoatchilik juda yaxshi kutib oldi. Yozuvchining yumorga moyilligi, oddiy vaziyatlardan ham kulgi chiqara olish iste'dodi ilgarigi asarlariga nisbatan bu asarida yana ham chuqquroq seziladi. "Sariq devni minib" asarini qiziqarli sujet asosiga quradi, asarning hikoyachisi – bayonchisi qilib undagi barcha voqealarning ishtirokchisi, guvoh bo'lmish Hoshimjonni qo'yadi, tilga olinadigan voqealar uning tilidan hikoya qilinadi.

Yozuvchi Hoshimjonning hikoyasi orqali uning hayot yo'li sarguzashtlarini, o'ziga xos xususiyatini va ruhiy xolatini atroflicha ochib berdi. Shuningdek, Hoshimjon xarakterida Xo'ja Nasriddinning va xalq ertaklaridagi "tegirmonga tushsa butun chiqadigan" zukko bolalarning fazilatları yaqqol mujassamlashganligini ko'ramiz. "Sariq devni minib"da o'qish, ilm cho'qqilarini egallash uchun va insonning o'z orzusi, ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yartib bergan zamonimizda yashashga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan hayotda yengil- yelpi yo'l axtargan va adashgan bolalar – Hoshimjonlar kulgi ostiga olinadi:

Hoshimjon dehqon oilasidan chiqqan, sho'xligi olamni buzadigan bir bola. U hayotdagi ko'p narsaga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz oson yo'l bilan erishgisi keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsaga erisha olishi, katta obro'

orttirish mumkin deb o‘ylaydi. O‘z fikrida qat’iy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergan ertakdagi sehrli qalpoqchani izlashga tushadi.

Uzoq izlanishlardan keyin istagan ishni hech qanday mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrli qalpoqchani tashlandiq molxonadan topib oladi. Endi u o‘zini orzulariga batamom erishadiganday his etadi. *“Ortiqcha” fanlarni dars jadvalidan chiqarishni rad etgan director, har xil vazifalar berib miyasini qotiradigan o‘qituvchilarga o‘qimasdan ham har qanday kasb egasi, mashhur odam bo‘la olish, ko‘krak to‘la ordenlar bilan shon-shuhratlar, katta obro‘ga ega bo‘lish mumkinligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘ladi va shu maqsadda sehrli qalpoqcha bilan safarga chiqadi. Shunday qilib, uning sarguzashtlari boshandi.*

Ming afsuski, *sehrli qalpoqcha bu borada Hoshimjonga ko‘mak bera olmaydi. Sehrli qalpoqcha muhayyo etgan imkoniyatlar har safar kutilmagan ko‘ngilsiz oqibatlarga olib kelaveradi. Hoshimjoning baxti endi kulay deb turganda ishning pachavasi chiqib qolaveradi. U davlat xo‘jaligida agronom bo‘lib ham, “shoirlik” qilib ham, qurilishda muhandislik qilib ham, qo‘g‘irchoq teatrida artistlik qilib ham koradi, mashhur sayohatchi sifatida butun dunyoni kezmoqchi ham bo‘ladi. Lekin hamma yerda limning, tajribasining yo‘qligi ishning pachavasini chiqaraveradi. Hoshimjon qayerga bormasin, qanday ish qilmasin pirovardida sharmanda –yu sharimsor bo‘ladi.*

Uning agronomlik va muhandislik “faoliyati” jinoyatga olib keladi, qamalishiga oz qoladi, shoir bo‘laman deb rasvo bo‘ladi, ulug‘ artist teatrdan quviladi. Qissada Hoshimjon o‘z sayohati davomida qanchadan qancha ajoyibotlarning guvohi bo‘lib, qiziq, kulgili sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U o‘qimay, mehnat qilmay, o‘z ustida ishlamay juda ko‘p narsalarga erishmoqchi bo‘ladi, lekin hech narsaga erisha olmaydi. Chunki unga ilmsizlik pand beradi.

Yozuvchi hoshimjon obrazini butun qirralari bilan ochishga uringan. Bolalarga xos o‘yinqaroqlik ham, soddaligi-u beg‘uborlik ham, g‘ururlik, to‘g‘ri so‘zlik, shumlik, biroz maqtanchoqlik, hatto o‘rnida yoqlg‘onni ham do‘ndirib

yuboradigan, o‘zini boshqalardan ajratib ko‘rsatishga intilish odatlari, bolalarga taqlidchilik, dovyurak, epchil va ruhiy tetiklik, xafachilik va ruhiy tushkunlikdan yiroqlik Hoshimjon xulq-atvoriga xos xususiyatdir.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni o‘limi” sarguzaht romani uch qism “O‘rtoq polkovnik”, “Sariq devni minib”, “Sariq devni o‘limi yoki olam guliston bo‘lgani”dan iborat. Bu roman asosida ham Hoshimjon sarguzashtlari yotadi. Kitobni o‘qib uning yangi sarguzashtlaridan xabardor bo‘lasiz, sehrli qalpoqcha yana madadga keladi, ajoyib-g‘aroyib karomatlar ko‘rsatadi. U Hoshimjonga jiddiy masalalarda – o‘g‘ri, muttahaam,tekinxo‘rlarni fosh etishda yordam beradi.

Endilikda, Hoshimjon avvalgi o‘yinqaroq Hoshimjon emas, balki to‘qqiz yillik maktabni bitirib, ulg‘ayib, birmuncha quyilib, esi kirib, oq-qorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o‘z taqdiri, jamiyatga foyda yetkazadigan odam bo‘lib yetishishi haqida jiddiy o‘ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshida sartarosh bo‘ladi. “Bilasiz-ku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmagunimcha qo‘ymaydigan odatim bor. Jonimni qiynab bo‘lsa ham maqsadimga erishaman”, deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog‘laydi.

Keyin militsiya maktabiga kirib o‘qib, uni bitirgandan so‘ng militsionerlikka ishga o‘tadi. Kitob barcha voqea-hodisalar, sarguzashtlar Hoshimjonning ana shu militsionerlik nuqtasidan boshlanadi, hamma gap so‘zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog‘liq holda davom etadi. *Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida militsiya polkovnigi Salimjon, uning madatkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battol gavdalanadi. Ular o‘rtasida tinimsiz kurash ketadi. Odil nihoyatda makkor.*

U Salimjonning boshiga juda ko‘p og‘ir savdolar solgan, uyiga o‘t qo‘ygan, uning yakka-yu yolg‘iz farzandining qo‘liga to‘ppancha tutqazgan, jinoyatga yetaklagan. Asar pirovardida butun umri xalqqa, yaxshi odamlarga zarar yetkazish bilan shug‘ullangan odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag‘lubiyatga uchraydi, haqiqat, adolat, ezgulik g‘olib chiqadi. Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘z romanida yug‘ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo‘lib

birlashsa, bu ishni butunlay o‘z qo‘liga olsa, Odil batollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi.

“Sariq devni minib” qissasi, “Sariq devni o‘limi” romanining eng yaxshi fazilatlaridan biri tilning shiradorligi va o‘ynoqiligidadir. Muallif bosh qahramon Hoshimjonning tilini alohida e‘tibor bilan ishlagan. Bu til nozik qochirimlarga boyligi va jonliligi, shu bilan birga, bolalar tiliga mos holda soddaligi bilan ajralib turadi. Qahramonning harakteri uning so‘zlaridan shundoqqina bilinib turadi.

Fantastik –sarguzasht janri bolalar adabiyotining eng qiziqarli janrlardan biridir. Bunday asarlar bolalarning ongi va psixologiyasiga kuchi ta’sir ko‘rsatadi, ularni o‘qishga, o‘rganishga, izlanishga o‘rgatadi, jamiyatimizning faol quruvchilarini tarbiyalashga yordam beradi.

80- yillar o‘zbek bolalar she‘riyatidagi hajviy-yumoristik va majoziy she‘riyat taraqqiyotida bugungi bolalar adabiyotimizning tom ma‘nodagi yetakchi namoyondasi Anvar Obidjon asarlari alohida o‘rin tutadi. Shoir “Bulbulning cho‘pchaklari”, “Kumush uy”, “Gurungdagi gaplar”, “G‘alati maktublar”, “Ajoyibxonona”, “Ignalarim chiroyli”, “Mening kolleksiyam”, “O‘zimizning ansambl”, “Shirin so‘ylar jajjivoylar”, “Kalamushlar kemasi” kabi turkumlarga kirgan ko‘plab she‘rlarda hajv va majozning ajoyib namunalarini yaratadi. Bu she‘rlarda goh turli jonzotlar tilidan majoziy yo‘lda, goh bolakaylarning o‘ziga xos shirin tillaridan ba‘zan be‘g‘ubor kulgu yaratilsa, ba‘zan kitobxonlarni o‘ylatib qo‘yadigan, kechagi kunimizning g‘am-anduhli manzaralarini ko‘z oldiga keltirib, erk, istiqlol tuyg‘ularni majoz pardasi ostida yaratishi bilan xarakterlidir.

“Bulbulning cho‘pchaklari” turkumidagi ”Ajoyibxonona marhamat” she‘riga jon baxsh etib turadigan holat har bir jonzotning tashqi ko‘rinishiga muvofiq keladigan o‘xshatish bilan tasvirlanishida aks etadi:

Ana qo‘pol Begemot, burni qumg‘onni ko‘ring,

Chaynab yotar tekin o‘t, Jiraf narvonni ko‘ring.

Yegan kabi qalampir beti bujmoq, qarang bir,

Og‘zida yo‘q tish ”kampir” – Baqa shodoni ko‘ring.

*Shoxda karnay chaladi, to 'ni ola-buladir,
Nomi Hakka xoladir, gapi yolg 'onni ko 'ring.
O 'tdan gulni ajratmas, ko 'proq hashak yesa bas,
Esi kirsas ajabmas, Xo 'tik nodonni ko 'ring.
Kamzulchasi ja tarang, kiyim boshi rango-rang,
Tumshug 'i o 'tkir, zarang, Jiblajibonni ko 'ring.
Sher narigi xonada, Shoqol nega panada,
Kuch bo 'lmasa tanada,zo 'rdan gumonni ko 'ring
Bo 'rsiq so 'rar barmog 'in, Savsar qashlar qulog 'in,
Qoplon charxlar tirnog 'in, nafsi yomonni ko 'ring...
Bulbul to 'kin yoz chog 'i ochdi jonzotlar bog 'i,
Qushlarning yo 'q sanog 'i, har xil hayvonni ko 'ring.*

“Burni qumg‘on” “Begemot, Jirafa narvon”, qalampir yegan kishi kabi beti bujmayib ketgan, og‘zida tishi yo‘q “kampir” - Baqa, tani olabula, yolg‘onchi Hakka xola, o‘t bilan gulning farqiga bormaydigan, ko‘ziga uchragan narsani xashak sifatida yeyaveradigan nodon Xo‘tik, kiyim-boshi rango-rang, o‘tkir tumshug‘i zarangday qattiq Jiblajibon, narigi xonada yurgan hayvonlar shohi – Sherning qadam tovushidanoq panaga urib ketgan qo‘rqoq Shoqol, tirnog‘ini charxlayotgan yirtqich Qoplon singari turfa jonivorlarning har biri o‘z qiyofasi bilan yosh kitobxon ko‘z o‘ngida yorqin namoyon bo‘lishining asosiy sababi, yuqorida ta’kidlanganiday, ularning bosh tashqi xususiyati tesha tegmagan o‘xshatishlarda tabiiy aks ettirilganidadir. Inchunun, Anvar Obidjon she‘rlarini yosh kitobxonang manzur qiladigan asosiy sifatlardan biri ham ana shunda.

Mustaqillik davri bolalar she‘riyatida ramzlar, timsollar kuchaygani va uning ba‘zi sabablari haqida fikr yuritdik. Anvar Obidjon she‘rlari ayniqsa shu borada alohida ahamiyatga molikdir. Uning she‘rlarida istibdod tig‘i ostida bo‘yni

egilgan, lekin doimo erk his-tuygʻulari qalbini tark etmagan xalqimiz timsoli ramzlarga oʻralgan holda tasvirlanadi. *“Kumush uy” turkumidagi “Yaylovni sogʻingan qoʻy” sheʻri ana shunday asarlardandir. Avvalo, turkum nomiga eʻtibor beraylik. Aslida “Kumush uy” ning oʻzi ham Vatan ramzi, “Yaylovni sogʻingan qoʻy” esa istibdod zanjirlari ostida ezilgan, qorni toʻq boʻlsada, qadri yoʻq, boshi egiklar timsoli:*

Ishlar qalay, -

Desam, Qoʻy

Javob berdi

Surib oʻy:

- Kamchilik yoʻq

Oziqdan...

Bezor boʻldim

Qoziqdan.

Shuni aytish kerakki, isteʻdodli shoir va tadqiqotchi D.Rajabov 80-yillar oʻzbek bolalar sheʻriyatining oʻziga xosliklari tadqiqiga bagʻishlangan nomzodlik dissertatsiyasida Anvar Obidjonning ushbu sheʻrini ilk bora majoziy asar sifatida tahlil qilgandir,

“Aka –uka” sheʻrida mustaqil Vatan kelajagi boʻlmish oʻsib kelayotgan yosh avlod ramziy yoʻsinda kechagi kunimizdagi qoʻli bogʻliq, koʻzi bogʻliq, istibdoddan yurak oldirib qoʻygan katta avlodga taqqoslanadi. Akaning pastga, jarlikka ”taka-puka termilishi” bejiz emas, chunki jarlik aslida tubanlik ramzi, ikkinchidan esa uning koʻz oldida xalqimizning istiqlol yoʻlida qurbon boʻlgan minglab farzandlari taqdiri turibdi:

Jar boʻyida turishar

Aka-uka.

Aka pastga termilar

Taka-puka.

Yuksakdagi lochinga

Boqar uka,

Go‘yo ko‘kda jim qanot –

Qoqar uka

Ukaning nigohi esa ko‘kda parvoz qilayotgan lochinga tikilgan. Chunki ko‘k ham, unda parvoz qilayotgan lochin ham aslida erk ramzlari, ukaning esa parvozi baland, nigohi istiqloqlarning yorishib kelayotgan porloq nurlariga tikilgan. Shu bois uka yosh kitobxon ko‘z o‘ngida Lochin yanglig‘ Erkin, erki uchun kurashga tayyor Inson timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

“Uchinchi polapon” she’rida “Aka-uka”dagi mavzu davom ettiriladi, yanada rivojlantiriladi. She’rda erkin qush – Lochin farzandlarining yovuzlik timsoli Oqilon bilan hayot – mamot jangi qalamga olinadi. Yovuz Oqilon onasini yordamga chaqirib chinqirgan ikkita polaponni bir zumda qoniga bo‘yaydi. Lekin inda Lochinning uchunchi polaponi ham bor. Garchi u norasida go‘dak bo‘lsa-da, uzoqlardagi onasini yordamga chaqirib yig‘lashdan manfaat yo‘qligini tushunib yetadi va o‘zini o‘zi himoya qilib, qattol dushmanni cho‘qib tashlaydi. She’r kelajakka ishinch ruhi bilan sug‘orilgan:

Ajdod qoni, o‘ch hissi

Berdi unga kuch, dalda

Cho‘qib oldi raqibin

Bo‘yin cho‘zgan mahalda.

Cho‘chib o‘tli nigohdan

Yov to‘lg‘anar dovdirab,

Mag‘rur turar yosh Lochin

Boqmas ko‘kka jovdirab

satrlarida erki uchun kurashgan, dushmanga qarshi doimo omonsiz kurashib kelgan ajdodlar ruhi mard farzandlarga bir umr kuch dalda berishi tuygʻulari yetakchilik qilsa, sheʼr:

U biladi,

Onasi –

Hozir olis bir joyda.

Boʻm-boʻsh koʻkka termilib

Qichqirmoqlik befoyda.

Oʻchkor boqar qotilga

Onaning mard Lochini...

Omon qolsa,

Bir kun u –

Yanchar Ilon boshini

satrlari bilan tugar ekan, qotilga oʻchkor boqayotgan uchunchi polaponning bir kun Ilon boshiga yetishi, dushmanidan ayovsiz oʻch olishiga ishonch ruhi yosh kitobxon qalbiga ham koʻchib oʻtadi, hayot uchun, erk uchun kurash tuygʻulari barhayotligiga ishonch tugʻdiradi.

“Yantoqlar haqida qoʻshiq” ham ozodlik uchun kurash tuygʻulari yetakchilik qilishi bilan eʼtiborga molikdir. “Suvsizlikdan soʻlmasdan, garmseldan jon saqlab, yovuz sahroni yengib” yashayotgan “yantoqlar” ham aslida xalq ramzi. Garchi u “yovuz sahro”da “suvsizlikdan soʻlishga” , “Garmsel”ning oʻtli shamollari taʼsirida asta-sekin oʻlimga mahkum qilingan boʻlsa-da, biroq “yantoqlar”ning chuqur oʻrnashgan, mustahkam ildizi har qanday sharoitda ham yashash uchun kurashga chorlaydi, shu bois ham yantoqlar doimo gullaydi, meva tugadi, kelajak avlodni yaratadi. Binobarin, zukko kitobxonning sinchkov nigohi bu sheʼrda xalqimizning istibdod tigʻi ostida oʻtgan keyingi yuz yildan ortiqroq

davr mobaynidagi tarixi ramziy yoʻsinda aks ettirilganini darrov payqab oladi.

Shoir:

Ezib oʻtdi yilqilar,

Ezib oʻtdi nortuya,

Tiklandingiz qaytadan

Olamda biz bor, deya,

Balli sizga yantoqlar!

Yancholmadi boʻronlar,

Kuymadingiz otashdan.

Gʻanimlar ham hayrondir

Bunday chidam, bardoshdan,

Balli sizga yantoqlar!

Der ekan, bu misralardagi “yilqilar” va “nortuya” ham yurtimizga bostirib kelgan turli gʻanimlar timsoli yangligʻ namoyon boʻladi. Chingizxon suvoriylarining yilqilari va arablarning tuyalari oyogʻi ostida ezilgan, toptalagan xalqimiz oʻzini baribir tiklab olgani, uni turli talotoʻplarning boʻronlariyu otashlari ham yoʻq qilolmaganidan hatto gʻanimlarning oʻzlari ham hayronliklari ishonarli tasvirlangan. Ehtimol, yosh kitobxon bu imo-ishoralar, ramzlarni toʻla tushunmas, biroq masal koʻrinishidagi (ramzlar, timsollarga asoslangan) asarlar shunisi bilan xarakterliki, ulardan har bir kitobxon oʻziga kerakli narsani uqib oladi. Barcha yoshdagi kitobxonlarga moʻljallangan bunday asarlar shu boisdan ham mazmunan koʻp qatlamli boʻladi.

“Yelpigʻichga yozilgan sheʻr”da esa shoir ramz vositasida hayotimizda uchrab turadigan irodasiz, birovlar qoʻlida qoʻgirchoq boʻlgan shaxslar qiyofasini yaratadi. Bundaylarning gʻanimlar uchun ayni muddao, xohlagan koʻyga solishda qoʻl keladigan yelpigʻich yangligʻ tuban ekanligini taʻkidlaydi. “Boʻron qoʻzgʻay olmaydigan” bunday maʼnaviy nogiron shaxslar uchun qorin tashvishi, xalqini

sotish evaziga erishiladigan boyliklar, mansablar-u omonat obro‘-e’tibor tashvishidan kattaroq g‘am, bundan ulkanroq orzu-umid yo‘qligi tasviri ushbu to‘rtlik mohiyatini to‘la aks ettiradi:

Sendaylarni saqlashar

Omon,

Chunki qo‘zg‘ay olmaysan

Bo‘ron.

Anvar Obidjonning tengsiz iqtidori yosh bola tabiatining o‘ziga xosliklarini tasvirlashda o‘zini yanada yorqinroq namoyon qiladi. “Oyim sezmasin” she’rida ana shunday yorqin tasvirning guvohi bo‘lamiz:

Cho‘pillatib

Jajji labin,

Shokoladga

Dedi Nabi:

- Sekin ochay

Qog‘ozingni,

Chiqarmay tur

Ovozingni!

Yosh bola nazarida hatto oddiy shokolad ham jonli mavjudot. U shokoladga “ovozingni chiqarmay tur, oyim sezib qolmasin” deb murojaat qilar ekan, bu gapni faqat yosh bola ayta olishi mumkinligiga shak-shubhasiz ishonasiz, ko‘z o‘ngingizda shokoladning qog‘ozini avaylab ochayotgan bolakay qiyofasi namoyon bo‘ladi.

“Guldor pufakcha” she’rida esa shoirning taqlidiy so‘zlar vositasida badiiy san’at yaratish mahorati namoyon bo‘lgan. She’r Ninachining guldor pufakcha topib olishi va undan o‘ziga g‘aroyib uycha qutib olishi tasviri bilan boshlanadi:

Topib oldi Ninachi

Guldor pufakcha.

Undan shinam uy qurdi

Urinib picha.

Bu g‘aroyib uychani ko‘rgan barcha jonivorlar hang-mang bo‘lib qolishadi. She‘r ana shu hayratlar ifodasi o‘laroq maydonga kelgan. Uychani ko‘rgan Chigirtkaning hayrati “*Chir-r-roylik – ku ja*” deyish bilan ifodalansa; Ho‘kiz “*Mo‘- o‘-o‘jiza qarang!*” deydi; Eshak esa hangu mang bbo‘lib “*E-ha, e-ha*” deyishdan boshqa so‘z topolmaydi. Shu tarzda shoir boshqa jonivorlarning hayratini ham har birning o‘ziga xos unlari bilan ishonarli ifodalaydi. Chunonchi:

Ko‘zi kuyib der Baqa:

Vaq-tim sal chatoq.

Qur –r-r-volardim men ham uy

Bundan durustroq.

Mushuk kelib,

Tomga bir-

Purkab ko‘rdi suv,

Xo‘roz boqdi ichkari:

Qup-quruq-ku bu...

Kalondimog‘ Xo‘rozga

O‘qraydi G‘ulg‘ul:

Muhimi ,

Uy bo‘lsa bas,

Topilar ul-bul.

E-e...

Be- e...

Echki ta'rifga

Topolmadi so'z.

I-r-r...

Bir- r uyga kiray , - der

Jilpanglab To'rtko'z.

Mezbon uni to'xtatdi:

Axir xona tor.

Mayli kirsin Itpashsha,

Itga nima bor?⁵⁹

Voqea yakkamohov, birovning xursandchiligini ko'rolmaydigan Qarg'aning aralashuvi bilan davom etadi va oxiri voy bo'lib tugaydi:

Qarg'a dedi:

Qar – r- r....

Qarshi bo'lmasang agar,

Kengaytirib ber-r-rayin

Uyingni jigar.

So'ng pufladi pufakni –

Qarg'avoy

”Qag' - qag'....”

Uy tarvuzdek bo'lgan choq

Portlab ketdi – ”Paq!⁶⁰”

⁵⁹ . Safarov O. Bolalik kuychisi. – Toshkent: Fan, 1978. – B. . 53-54.

Tovush o‘xshatishlari asosida yaratilgan ushbu she’rda shoir avvalo, yosh kitobxon ko‘z oldida turli jonivorlarning jonli qiyofasini namoyon qila olgan bo‘lsa, ikkinchidan ularning tabiati, xarakteriga tegishli bir-ikki so‘z, imo-ishora bilan har bir jonivorning portretiga ham chizgilar chizishga erishgan.

Hamza Imonberdiyevning “Lofchilar-aldoqchilar” she’rida yana shu kabi xushchaqchaq bolakaylar bilan uchrashish mumkin. Ularning beg‘ubor loflaridan maza qilasiz:

Ali, Vali lofchilar –

Xushchaqchaq aldoqchilar

Rosa lofni urishar

Ko‘pikdan uy qurishar,

maza qilib kulishar.

Ali debdi- Vali, kel,

rasmimga baho ber.

Qushcha chizdim ajoyib,

ajoyibu g‘aroyib.

Ana u don yeyapti

Menga rahmat deyapti.

Vali boqsa varaqqa,

shakl yo‘q hech qanaqa.

Aldabsan-ku, qani don?

- qush yeb qo‘ydida, nodon!

Yo‘qotdingmi hushingni,

ko‘rmayapman qushingni?!

⁶⁰. Сафаров О. Болалик куйчиси. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. . 53-54.67

- to 'ygach, qushcha chirq etdi,

“Rahmat” deb uchdi-ketdi!

Ali, Vali lofchilar –

Xushchaqchaq aldoqchilar

Rosa lofni urishar

Ko 'pikdan uy qurishar

Maz-za qilib kulishar

Ushbu misralarni o'qishingiz bilan o'z yoshligingiz ko'z oldingizda “yarq” etib namoyon bo'lishi turgan gap. Chunki deyarli har bir yosh bola aslida ana shunday ozgina lofchiroq, ozgina aldoqchiroq, ozgina vahimachiroq bo'lishi turgan gap. Shu bois ham yosh bolaning beg'ubor nigohi oddiygina tol chiviqdan chopqir ot, oyoq botmas ko'lmakdan bepoyon ummon yaratadi va aslida olamshumul kashfiyotlar ham ana shu beg'ubor nigoh mahsulidir. Shu sababli bu loflar-yolg'onlar ham kitobxonga zarracha malol kelmaydigan, bolakaylarning had-hudud bilmas hayolot olami bilan oshno qiladigan g'aroyib topilmalar sifatida sizni beixtiyor ishontiradi. O'sha oppoq qog'ozda hozirgina don yeb yurgan qushchaning oyoq izlarini ko'rasiz.

Shunisi qiziqki, “Lofchilar-aldoqchilar”ni o'qib, *Ali bilan Valining yolg'onlaridan xafa bo'lmaysiz, chunki ular yolg'on aytib birovni aldamaydilar, balki xayollariga kelgan loflarni bir-biriga aytish bilan go'yoki kim zo'rroq lof aytishga bahslashadilar. Ularning loflari beg'ubor, bu loflarning yolg'onligini ularning o'zlari ham bilib turadilar, faqat mana shu kim o'zarga aytilgan loflardan bolakaylar o'zlaricha zavq topadilar:*

Ali boshin qashlaydi,

jiddiy turib boshlaydi:

aqli bir itim bor,

misolni shart ishlaydi

ruchkani qanday ushlar?

Tishi bilan tishlaydi.

Xo 'jayin o 'ynab qol, der.

Tortinma, bemalol, der.

She'r yodlashmi, masala,

deydi menga qo 'yib ber.

Nazarimda, Ali – Valilarning hangomalari bu she'rda yanada ishonarliroq mohiyat kasb etgan. Chunki yolg'onni rostga aylantirib yuboradigan "azamatlar" odatda kiprigini qoqmay, ko'zini yummay yolg'onni to'qishi hammaga ma'lum. Xullas, "Lofchilar-aldoqchilar" she'rlaridagi yolg'onni suv qilib ichib yuboradigan Ali-Valilar aslida barcha tengdoshlari singari oddiy bolalar, faqat ularning xayolot olami cheksiz-chegarasiz va shu sababli ham ular qatrada dengizni ko'ra oladigan bolakaylar bo'lgani sababli ham yosh kitobxonlarga qadrdondir.

Xulosa o'rnida shuni aytamizki, Bolalar adabiyotida tilning tasviriy vositaga she'rni ohangdor, jozibador qilish uchun murojaat qiladi desak, bir tomonlamalikka yo'l qo'ygan bo'lamiz. U so'z ruhi bilan birga yashaydi, uning qudratini, tovlanishlarini doimo his qilib turadi va tildagi bu imkoniyatni favqulodda tabiiylik bilan ishga soladi. Muayyan lingvostilistik asosga ega bo'lgan va kutilmagan obrazlilik hamda ekspressivlik mana shu tarzda paydo bo'ladi va o'quvchini hayajonga soladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Vatanimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda mustaqil davri bolalar adabiyotining til xususiyatlarini isloh etishga kirishildi, buning sharofati o'laroq, ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lar ekan, u nafaqat bugungi bolalar adbiyotida madaniy boyliklarga, qadriyatlarga zamonaviy, ma'naviy yutuqlarga, shu bilan birga har bir xalqning ko'p asrlik ma'naviy merosiga ham tayanadi. Har bir davr, xalq, millatning ma'naviy qadriyatlari tabiiyki, quruq, bo'sh yerda vujudga kelmaydi, har qanday ma'naviyat, eng avvalo, jamiyatda avval erishilgan muayyan bilimlar, tajribalar hamda o'tmish avlodlardan bizgacha yetib kelgan ma'naviy merosga, shuningdek, umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar taraqqiy topa boshladi. Bolalar adabiyotida milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar, vatan va xalq tarixi, yoshlar va o'smirlar, bir so'z bilan aytganda, yosh avlod ta'lim tarbiyasi dolzarb mavzularga aylandi; – mamlakatimizda mustaqillik davri bolalar adabiyotining uslubiy-tasviriy vositalar bolalar nutqini individuallashtirish, tipiklashtirish, bola shaxsini gavdalandirish, psixologiyasini ochib berish, vaziyatning aniq tasvirini bola tilidan obrazli ifodalashga xizmat qilishi mumkin.

Bolalar adabiyotlarining maqsad va vazifalari, tabiati, yo'nalishi, uslubi zamon talablariga ko'ra yangilandi, buning natijasida sinflar bilan munosabatlar yangicha darajaga ko'tarildi. Bolalar adabiyotlari alohida maqsad va vazifasi, tabiati va shakliy o'ziga xosliklari, bayon uslublariga ko'ra, kattalar nashridan farq qiladi. Haqiqatdan, bolalar nashrlarida tarbiyaviy estetik mohiyat yetakchilik qiladi, bolalar uchun yozadigan yozuvchi-yu adiblar, shoir-u shoiralalar, yosh qalam sohiblari, bolalar nashrlarida ishlovchi muxbiru muharrirlar esa, murabbiy singari ruhan bolalar olamiga yaqin va ayni paytda, mukammal tafakkur egasi bo'lmog'i zarur; – mustaqillik davri bolalar adabiyotining til xususiyatlarida yuqori saviyali maqolalar ko'zga tashlanadi. Bunda publisistik maktub, murojaat, taqrizlarda bolalarbop bayon uslubi, milliy ruh, fikrlarning obrazli bayoni, qolaversa, turli janrlar xat, xabar, lavha, suhbat, intervyu, reportaj, taqriz kabi axborot beruvchi;

tahliliy xususiyatga ega maqola, ocherk, felyeton, esse, badiha (topqirlik) singari qorishiq janrlar uchraydi. Shuningdek, Anvar Obidjon she'rlarida mahorat bilan qo'llangan poetik obrazlarining barkamol inson tarbiyasidagi ahamiyati nihoyatda kattadir. Ular bolalarning ilm-ma'rifatga bo'lgan rag'batlarini oshiradi, o'zlari va atrofdagilarga, ota-ona va o'qituvchilariga bo'lgan munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Shuning uchun ham umuminsoniy qadriyatlar, mavzular, muammolar milliy bolalar nashrlarida yoritib borilmog'i maqsadga muvofiq. Bolalar adabiyoti bolalarbop ijtimoiy taraqqiyotning ob'yektiv qonuniyatlarini ko'rsatib bormog'i kerak. Butun dunyo bolalariga xos jarayonlarni rivojlantirishda bolalar adabiyoti faolligi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda mustaqil bolalar adabiyoti tilning leksik-semantik xususiyat tomonlarini ochib berish hamda o'zbek bolalar adabiyoti tilning funksional-uslubiy imkoniyatlari. Bunda tilning leksik – semantik hamda tilning funksional-uslubiy xususiyatlarini shakllantirish masalasi ko'tarildi. Bular:

- Bolalar adabiyotida ma'nodosh so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari;
- Bolalar adabiyotida zid ma'noli so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari;
- Bolalar adabiyotida ko'p ma'noli so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari;
- Bolalar adabiyotida frazalogik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari;
- Bolalar adabiyoti tilida o'xshatishlarning poyetik imkoniyatlari;
- Epitetlarning uslubiy imkoniyatlari;
- Mustaqillik davri o'zbek bolalar adabiyoti tilida ko'chimlar bilan bog'liq jihatlarini nazardan qochirmaslik. Bu holat ayniqsa, og'zaki so'zlashuv nutqida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar yosh kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga turli munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqiradi.

Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi, ilm-fanga muhabbatini oshiradi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg'ularini o'stiradi. Ta'kidlab o'tish kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam soxibi hayotdagi muhim, xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytamizki, Bolalar adabiyotida tilning tasviriy vositaga she'rni ohangdor, jozibador qilish uchun murojaat qiladi desak, bir tomonlamalikka yo'l qo'ygan bo'lamiz. U so'z ruhi bilan birga yashaydi, uning qudratini, tovlanishlarini doimo his qilib turadi va tildagi bu imkoniyatni favqulodda tabiiylik bilan ishga soladi. Muayyan lingvostilistik asosga ega bo'lgan va kutilmagan obrazlilik hamda ekspressivlik mana shu tarzda paydo bo'ladi va o'quvchini hayajonga soladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va nazariy-metodologik manbalar

1. Мирзийев Ш.М. Миллий тараққийот йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. 1-жилд,-Т: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017-йил
2. “Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз” //Ташкент. “Ўзбекистон”.2016. Ш.М.Мирзиёев
3. Мирзийев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд.-Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018-йил
4. Мирзийев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳайоти йоруғ ва келажаги фарован бўлади. 3-жилд.-Т.: : “Ўзбекистон” НМИУ, 2019-йил
5. Мирзийев Ш.М. Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари. 4-жилд.-Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2020-йил
6. Мирзийев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “Ўзбекистон” нашрийоти 2021-йил, 464 бет
7. Мирзийев Ш.М. “Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир” – Тошкент : Тасвир, 2021
8. Янги Ўзбекистон тараққийот стратегияси асосида демократик ислохотлар роълини қатъий давом эттирамиз. Янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи. 06.11.2021-йил.

II. Monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy maqolalar.

9. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. Toshkent. Fan. 2007.
10. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976.
11. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1976.
12. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Тошкент: Фан, 1977.
13. Сафаров О. Болалик куйчиси. – Тошкент: Фан, 1978. – В.67.

14. Юнусов М. Болалар калбининг байрами. – Тошкент: Ёш гвардия, 1984. – В. 61-62.
15. Баракаев Р. Жонажоним, шеърят. – Тошкент: Чулпон. 1997. – В. 68
16. Виноградов. В.В. О языке художественной литературы.-М.: Gostexizdat, 1957.-S.4
17. Yo‘ldoshev B, Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. B.88
18. Doniyorov X, Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent: Fan. 1988. B.71
19. Виноградов. В.В. О теории художественной речи. –М., 1971. –S. 105-211.
20. Умуров Ҳ. Адабиёт қоидалари. Тошкент: Ўқитувчи. 2002. Б.5-8
21. Саидхонов М. Ўзбек тилида новербал воситалар ва уларнинг қўлланиши: Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2013. – Б. 28.
22. Болтаева Б. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси (семантик-прагматик таҳлил): Филол. фан. фалсафа д-ри (ПхД)... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 48 б. ва бошқалар.
23. Сайидирахимова Н. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2004. – 126 б.;
24. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 154 б.;
25. Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагмалингвистик аспекти. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. – 160 б
26. Умирова Светлана Маъмуржонова. Ўзбек шеърятда лингвистик воситалар воситалар ва поетис индивидуаллик. Самарқанд – 2019 номли мақоласидан олинган
27. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5жилдлик, учинчи жилд. — Тошкент: ЎЗМЕ Давлат нашриёти, 2007, -Б.449-450, 457.

28. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romanida XIV bobi Uzunquloq ota yoki urg'ochi eshak qissasida // yangi asr avlodi. Toshkent 2019.184-190-betlar.
29. Anvar Obidjon. "Dahshatli meshpolvon" qissa – doston. Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati// Toshkent - 2019.// 21-23 betlar.
30. Болалар нашрларида ижодий маҳорат масалалари" Ўзбекистон миллий университетининг Ёш тадқиқотчилар илмий мақолалар тўплами. –Т.: 2015 йил, 3-бет.
31. Ўзбекистонда мустақиллик даври болалар матбуотининг ривожланиши// Ўзбекистон Миллий университетининг Ёш тадқиқотчилар илмий мақолалар тўплами. –Т.: 2016 йил, 5-бет.
32. Ахборот глобаллашуви даврида ёш авлод медиатаълими муаммолари// Олий ва ўрта махсус вазирлигининг "Таълимни ахборотлаштиришнинг замонавий интерфаол технологиялари" илмий-амалий конференцияси 1-том. – Т.: 2016 йил.
33. Кекса авлодни эъзозлаш – олий кадрият// ЎзДЖТУ Республика илмийамалий анжумани тўплами, 2-китоб, -Т.: 2015 йи
34. Прокофьева Л.П. Лингвоцветовая картина мира Александра Блока. http://www.ksu.ru/f10/publications/konf/articles_1...;
35. S.Axmedov, R.Qo'chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot 6-sinf darslik o'quv qo'llanma. Toshkent "Ma'naviyat"-2005.
36. "Sariq devni minib"asarida o'xshatish. Umurqulov Zafar (talaba) maqola.
37. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976
38. Худойберди Тўхтабоевнинг "Қуёнлар салтанати" асари 7-б.
39. Худойберди Тўхтабоев асар "Телебола" ҳикояси 41-бет//
40. Худойберди Тўхтабоевнинг эртақлар туркумидан олинган "Асраб олинган қиз". 197-бет.

41. Худойберди Тўхтабоевнинг “Қайлардасан, болалигим” асари. 97-бет.
42. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати”да терисига сомон тикмоқ, яъни “жуда қаттиқ жазоламоқ ” 36-б.
43. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да терисига (ёки терисини шилиб) сомон тикмоқ, яъни “ниҳоятда қаттиқ жазоламоқ”(37-б)
44. Худойберди Тўхтабоевнинг сўз қўллаш маҳорати. //Сиенцифис Жоурнал Импастр Фастор -2021й. //
45. Гулноза Тешабоева. Бошланғич таълим кафедраси ўқитувчиси. Андижон давлат университети.
46. П.Кодиров. Халк тили ва реалистик проза.Т.,Фан, 1973. 4 б.
47. Анвар Обиджон “Аламазон ва унинг пиёдалари” қисса ва хикоялар. : Янги аср авлод, 2014.- 8-бет.
48. Раҳматулла Баракаев, Бахшилло ашуров “Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар” Тошкент “Академнашр” – 2017 15 бет.
49. То‘хтабоев Х. Jonginam shartingni ayt. Qissa va hikoyalar. –Т.: Yosh gvardiya, 1978.
50. То‘хтабоев Х. Sariq devni minib. Uch qismli sarguzasht roman. – Т.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashryoti, 1977.
51. Sharafiddinov O. Botirlarning umri boqiy. Manba: Go‘zallik izlab. – Т.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashryoti, 1985.
52. Shermuhammedov P. Ezgulik hissini tarbiyalab... Manba: Barchadan yaxshiroq hayot guli... –Т.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashryoti, 1983.
53. Адашбоев Т. Арслонбоб шаршараси. – Тошкент: Ёш гвардия, 1969. – Б. 14 (Кейинги ўринларда тўплам номи ва саҳифаси қавсда кўрсатилади).

III. Boshqa manbalar (internet saytlaridan olingan manbalar)

1. www.gov.uz. – O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali.
2. www.bilim.uz. – Ilmiy-ommabop sayt.

3. *www.ziyonet.uz*. – Ziyonet internet tarmog‘i.
4. *www.lex.uz* . – O‘zbekiston qonun qujjatlari sayti
<https://hidoyat.uz>